

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**BYUDJET HISOBI VA DAVLAT JAMG‘ARMALARI FAKULTETI**

**“TASDIQLAYMAN”**

Byudjet hisobi va davlat  
jamg‘armalari fakulteti dekani

**J.Karimqulov**

“ ” 2016 yil

**“PENSIYA ISHI” KAFEDRASI**

**G‘IYOSOVA HULKAR MUSTAFO QIZI**

**“DAVLAT PENSIYALARINING TURLARI, ULARNING AMAL  
QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH  
YO‘LLARI”**

5231300 -“Pensiya ishi” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha  
bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”**

“Pensiya ishi” kafedra mudiri

\_\_\_\_\_ **i.f.n. B.Mamatov**

“ ” 2016 y.

Ilmiy rahbar:

\_\_\_\_\_ **o‘q. F. Xamraeva**

“ ” 2016 y.

**TOSHKENT – 2016**

## MUNDARIJA:

<b>KIRISH .....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PENSIYA TA’MINOTINING NAZARIY VA TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI .....</b>	<b>7</b>
1.1. Ijtimoiy ta’minot tizimida pensiya ta’minotining tutgan o‘rni va ahamiyati .....	7
1.2. O‘zbekiston Respublikasida davlat pensiyalarining turlari va ularni tayinlashning tashkiliy-huquqiy asoslari .....	13
I Bob bo‘yicha xulosa .....	25
<b>II BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BYUDJETDAN TASHQARI PENSIYA JAMG‘ARMASIDAN TO‘LANUVCHI PENSIYALARNI HISOBLASH VA TO‘LASH TARTIBI .....</b>	<b>26</b>
2.1. Yoshga doir pensiyalarni tayinlash va to‘lash amaliyoti .....	26
2.2. Nogironlik pensiyalarni tayinlash va to‘lash amaliyoti .....	37
2.3. Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalarini tayinlash va to‘lash amaliyoti .....	51
II Bob bo‘yicha xulosa .....	58
<b>III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA DAVLAT PENSIYALARINI AMAL QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI .....</b>	<b>59</b>
3.1. Xorijiy mamlakatlarda pensiya ta’minoti tizimi .....	59
3.2. Davlat pensiyalarini amal qilish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari .....	68
III Bob bo‘yicha xulosa .....	75
<b>XULOSA .....</b>	<b>76</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....</b>	<b>80</b>

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi.** O‘zbekiston tanlagan islohot yo‘li ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan. Hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan, besh tamoyilga asoslangan va amaliyotga izchil joriy etilayotgan milliy taraqqiyot modeli mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Respublikamizda ijtimoiy siyosatni shakllantirish masalasi yoki iqtisodiyotni isloh etish va modernizatsiya qilish dasturini hayotga tatbiq etish bo‘ladimi, ijtimoiy soha tizimida uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlarni belgilab olish bo‘ladimi – bularning barchasida biz uchun faqat bitta masala eng ustun va hal qiluvchi o‘rinda turadi, u ham bo‘lsa, inson manfaatlarining ustuvorligidir. Ayniqsa, keksalarning turmush darajasi va hayot sifatini izchil va bosqichma-bosqich yuksaltirish – bizning asosiy maqsadimizdir.

2015-yilda iqtisodiyotimizni yuqori sur‘atlar bilan barqaror rivojlantirishga erishganimiz aholi daromadlarini yanada ko‘paytirish, odamlarimizning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun mustahkam asos yaratdi. Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar 21,9 foizga, aholi jon boshiga jami real daromadlar esa 9,6 foizga oshdi. Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar ulushi 2010-yildagi 47,1 foiz o‘rniga 52 foizga o‘sgani va bu Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlaridagi ko‘rsatkichlardan sezilarli darajada yuqori ekanini alohida ta’kidlash lozim. O‘zbekistonda mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuv darajasini kamaytirishga alohida e’tibor berilayotgani, sodda qilib aytganda, o‘ta boylar ham, o‘ta kambag‘allar ham bo‘lmasin, degan tamoyilga amal qilib kelinayotgani sizlarga yaxshi ma’lum, albatta. Yurtimizdagi 10 foiz ta’minlangan va 10 foiz yetarlicha ta’minlanmagan aholi daromadlari o‘rtasidagi farq, ya’ni “detsil koeffitsenti” deb nom olgan ko‘rsatkich barqaror pasayish tendensiyasiga ega bo‘lib, bu raqam 2010-yildagi 8,5 foiz o‘rniga 2015-yilda 7,7 foizni tashkil etdi. Daromadlar o‘rtasidagi farqni ifoda etadigan yana bir xalqaro ko‘rsatkich – Jini indeksi mamlakatimizda 2010-yildagi

0,390 o‘rniga 2015-yilda 0,280 ni tashkil etdi va bu natija dunyoning ko‘plab iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlariga qaraganda ancha pastdir<sup>1</sup>.

Jamiyat har bir a‘zosining ehtiyojlarini qondirishga mo‘ljallangan bozor iqtisodiyotini rivojlantirish davlat moliyasi, byudjet siyosatining o‘zagini tashkil etadi. Chunki har bir insonning yoki biror ijtimoiy guruhning, qolaversa, millatning ijtimoiy manfaatlari doimo uning ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi jamiyat tizimining munosabatlarida va Davlat byudjeti xarajatlarida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston jahonda aholisi soni barqaror sur‘atlarda o‘sib borayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Respublikada aholining yosh tarkibida yoshlar katta salmoqqa ega bo‘lishiga qaramasdan keksalarning salmog‘i barqaror darajada saqlanib qolmoqda. Mustaqillik yillarida aholining o‘rtacha umr ko‘rish darajasi tobora yaxshilanib, o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda.

Shu davrda yurtimizda odamlarning o‘rtacha umr ko‘rish darajasi 67 yoshdan 73 yoshga yetdi, onalar o‘limi 3,1 barobardan ziyod, bolalar o‘limi 3,2 barobar kamaydi”<sup>2</sup>. Shuningdek, 2012 yil 6 yanvardan amalga kiritilgan O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalarda ijtimoiy mo‘ljalning universalligi tamoyillarini bosqichma-bosqich amalga oshirish, fuqarolar pensiyalarini hisoblab chiqarish uchun olinadigan o‘tgan yillardagi ish haqilarini pensiya tayinlanadigan kundagi ish haqi darajasiga keltirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab beriladigan tartibga asosan qayta hisoblashning amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Pensiya ta‘minoti qonunchiligiga kiritilgan mazkur o‘zgartishlar fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti masalalarini hamda mehnatga oid munosabatlarni tartibga soluvchi amaldagi qonunchilikni yanada

---

<sup>1</sup> “Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. 15.01.2016 yil.-www..uza.uz- internet sayti ma‘lumotlari asosida

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi “Iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustqillik yillaridagi (1990-2010-yillar) asosiy tendensiya va korsatkichlari hamda 2014-2015-yillarga moljallangan prognozlari”, Statistik to‘plam – T.: “O‘zbekiston”, 2011-yil, 5-bet

takomillashtirish, pensiya ta'minotida ijtimoiy adolat prinsiplarini kuchaytirish, yuqori ish haqi olib ishlagan fuqarolarga mutanosib miqdorda pensiyalar tayinlash imkoniyatlarini yaratish va pensiyalar miqdorini ustuvor tarzda oshirishga xizmat qiladi. Gap shundaki, Pensiya fondi tomonidan pensiya va ijtimoiy nafaqalarni o'z vaqtida, to'liq miqdorda moliyalashtirish, to'lovlar ustidan monitoringni yuritish, pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan mablag'larning maqsadlilik va nazoratini kuchaytirish borasida bir qator vazifalar belgilab berildi. Albatta ushbu vazifalarni amalga oshirishda va umuman Pensiya fondi faoliyatini samarali tashkil etishda ma'lum bir moliyaviy resurslar bazasi talab etiladi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning yanada chuqurlashuvi, aholini manzilli ijtimoiy himoya qilishning kuchayishi pensiya tizimini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirishni taqozo etmoqda hamda Pensiya fondi mablag'larini shakllantirish va ulardan samarali foydalanish masalalari bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu esa tanlagan mavzuni bugungi kundagi dolzarbligini belgilab beradi.

**Bitiruv-malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.** O'zbekiston Respublikasida pensiya turlari bo'yicha, ularni amal qilish mehanizmlarini takomillashtirish yo'llarini tadqiq etish tanlangan bitiruv malakaviy ishimizning *maqsadi* hisoblanadi.

Yuqoridagi maqsadga erishishda quyidagi *vazifalarni* amalga oshirish belgilandi:

- Ijtimoiy ta'minot tizimida pensiya ta'minotining tutgan o'рни va ahamiyatini o'rganish;
- O'zbekiston Respublikasida davlat pensiyalarining turlari va ularni tayinlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini o'rganish;
- Davlat pensiya turlari buyicha ularni tayinlash amaliyoti mehanizmini tahlil etish;
- Xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribalaridan foydalanish imkoniyatlarini tadqiq etish;

- Davlat pensiyalarini amal qilish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

**Bitiruv-malakaviy ishining obyekti** sifatida Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining Karmana tumani bo‘limi tanlangan.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti.** Pensiya turlarini tayinlash va to‘lash jarayonidagi iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibi va tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi 90 betdan iborat bo‘lib, unda 7 ta rasm va 4 ta jadval o‘z aksini topgan.

Bitiruv-malakaviy ishining kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning ob‘ekti, predmeti, nazariy va amaliy ahamiyati bayon etilgan.

Bitiruv-malakaviy ishining birinchi bobida O‘zbekiston Respublikasi pensiya ta‘minotining tashkiliy-huquqiy asoslari nazariy jihatdan o‘rganilgan.

Bitiruv-malakaviy ishining ikkinchi bobida O‘zbekiston Respublikasi byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasidan to‘lanuvchi pensiyalarni hisoblash va to‘lash tartibi tahlili keltirilgan.

Bitiruv-malakaviy ishining uchinchi bobida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat pensiyalarini amal qilish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari tadqiq etilgan.

Bitiruv-malakaviy ishining xulosa va takliflar qismida olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari yuzasidan shakllantirilgan xulosalar hamda ishlab chiqilgan amaliy taklif va tavsiyalarining qisqacha mazmuni o‘z ifodasini topgan.


# **I BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PENSIYA TA’MINOTINING NAZARIY VA TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI**

## **1.1. Ijtimoiy ta’minot tizimida pensiya ta’minotining tutgan o‘rni va ahamiyati**

Inson hayoti davomida uning sog‘ligiga ta’sir etuvchi va buning natijasida uning asosiy daromad manbai bo‘lmish ish haqini yo‘qotishiga olib keluvchi shart-sharoitlarning yuzaga kelish xavfi ostida turadi. Ushbu shart-sharoitlarga: kasallanish, qarilik, nogironlik, boquvchisini yo‘qotish va boshqalar kiradi. Mustaqil ushbu sharoitlarga qarshi kurashish har doim ham mumkin emas. Ular shaxsning faol faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, alohida shaxslarning hoxish va irodasiga bog‘liq bo‘lmaydi. Shu bilan birgalikda ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga ta’sir etadi. Shuning uchun ham davlat ushbu holatning yuzaga kelishidagi ma’lum bir javobgarlikni o‘z zimmasiga olib, davlat pensiyalarini, ijtimoiy nafaqalarni va xizmatlarni tayinlash orqali ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini shakllantiradi.

*Ijtimoiy ta’minot* - ma’lum bir kategoriyadagi fuqarolarni mamlakat rivojlanishining ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan hodisalarning yuzaga kelishi natijasida boshqa jamiyat a’zolari bilan ijtimoiy tengligini ta’minlash maqsadida davlat byudjeti va mahsus ijtimoiy fondlar hisobidan moddiy ta’minlashga yo‘naltirilgan davlat ijtimoiy siyosatining shakli hisoblanadi. Ijtimoiy ta’minotga zaruriyat fuqarolik jamiyatining yuzaga kelishi bilan vujudga kelgan. Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga qaramasdan, unda har doim tabiiy, o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan sabablar doirasida hayotiy faoliyatni amalga oshirish uchun etarli miqdordagi mablag‘ga ega bo‘lmagan fuqarolar topiladi. Ular jumlasiga avvalo bolalar va qariyalarni kiritish mumkin. Bundan tashqari mehnat qilishga qobiliyatsiz bo‘lgan shaxslar jumlasiga sog‘ligini yo‘qotganligi sababli vaqtincha yoki doimiy asosda mehnat qilish qobiliyatini yo‘qotgan fuqarolar ham kiradi.

Bozor iqtisodiyoti ijtimoiy xavflardan aholini ijtimoiy qo‘llab quvvatlashning avtomatik mexanizmini shakllantirmaydi, chunki ular ma’lum bir moddiy xarajatlarni talab etib, foyda keltirmaydi. Ushbu vazifalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ma’lum bosqichiga etgan, jamiyatning rivojlanishida uning ahamiyatini tushunib etgan davlat amalga oshiradi. Ijtimoiy davlat bu shunday davlatki, u o‘z hududidagi fuqarolariga, shuningdek chet el fuqarolariga hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga qonuniy doirada maqbul yashash sharoiti va erkin rivojlanishni ta’minlab beradigan davlatdir. U davlat ijtimoiy ta’minot tizimini shakllantirib, pensiyalar, nafaqalar, kompensatsiyalar, tibbiy va ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirishda ishtirok etadi (1.1-rasm).



**1.1-rasm. Tegishlilik darajasi bo‘yicha ijtimoiy ta’minot tizimi<sup>3</sup>**

<sup>3</sup> Kathryn Anne Edwards, Anna Turner, Alexander Hertel-Fernandez “A Young Person’s Guide to Social security” Economic Policy Institute, 2011 y. p 26-27

Qonunchilik ijtimoiy ta'minotning quyidagi olti turini nazarda tutadi: pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy ta'minot kompensatsiyasi, imtiyozlar, ijtimoiy va tibbiy xizmatlar, hayotiy zarur ashyolar. Yuqorida qayd etilgan bu turlarning xar biri, odatda yana qator turlarga bo'linadi. Bunda ijtimoiy ta'minot turlari barqaror xususiyatga ega bo'lgani holda ularning boshqa turlari muayyan siyosiy, iqtisodiy va boshqa sharoitlarga bog'liq ravishda o'zgarib boradi. Ijtimoiy ta'minot tizimni moliyalashtirishning asosiy manbai bo'lib yagona ijtimoiy to'lov, sug'urta badallari, turli darajadagi byudjetlar hisoblanadi.

Ma'lumki, ijtimoiy ta'minotning markazida pensiya ta'minoti turadi. Ko'pchilik davlatlarda pensiya ta'minotini mablag' bilan ta'minlash maqsadida markazlashgan tartibda maxsus fondlar – Pensiya fondlari tuziladi. Ularning asosiy maqsadi shu mamlakat pensiya qonunchiligi bilan belgilangan pensiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlarni moliyalashtirishdan iborat. Bizning mamlakatimizda ijtimoiy ta'minot vazifalarini davlat byudjeti bilan birga, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bajaradi. Bugungi kunda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan quyidagi pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar to'lanadi, shuningdek, fuqarolarning ijtimoiy ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan boshqa sarfiyotlar amalga oshiriladi:

- ishlayotgan pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash;
- ishlamaydigan pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash;
- davlat pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lmagan qariyalar va mehnatga qobiliyatsiz fuqarolarga nafaqalar berish;
- dafn marosimlari uchun nafaqalar;
- belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa xarajatlar.

Ma'lumki, pensiya ta'minoti tizimi jahondagi barcha davlatlarda aholini ijtimoiy himoyalash siyosatining markaziy bo'g'ini hisoblanadi. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida yuz berayotgan demografik o'zgarishlar va iqtisodiyotni global miqyosda qamrab olgan moliyaviy

inqirozlar tufayli pensiya ta'minoti tizimining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o'rni yanada oshib bormoqda.

XX asrning 60-70-yillaridan boshlab avval Evropa mamlakatlarida, keyinchalik dunyoning barcha mintaqalarida kuzatilgan aholi tug'ilish koeffitsientining davomiy pasayib borishi aholining o'sish sur'atlarining sekinlashuviga, ayrim hollarda esa mutloq kamayish tendentsiyalarining vujudga kelishiga sababchi bo'ldi. Tug'ilishning kamayishi yer sharining barcha mintaqalarini qamrab olgan, ortga qaytmas jarayonga aylandi. Endilikda jahondagi odatda ko'p bolali mintaqalar hisoblanmish arab mamlakatlari yoki Xitoyda aholi o'sish sur'atlarining kamayishi kuzatilmoqda. Masalan, Xitoyda oxirgi o'n yillar davomida olib borilgan "Bir oila – bir farzand" siyosati natijasida 2010 yilga kelib aholining yillik o'sish sur'ati 0,6 foizga teng bo'ldi va ushbu ko'rsatkich bo'yicha u dunyo mamlakatlari ichida 153-o'rinni egalladi. Bu kabi o'zgarishlar insoniyatning global miqyosda qarib borish jarayoni boshlanganligidan va bu jarayon hali uzoq vaqt davom etishidan darak beradi<sup>4</sup>.

Mamlakatimizdagi ijtimoiy ta'minot tadbirlarining markazida pensiya ta'minoti turadi. Pensiya ta'minoti fuqarolarning ijtimoiy ta'minlanish borasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarishning tashkiliy shakli bo'lib hisoblanadi. Pensiya ta'minotining moliyaviy asosini mamlakatning Konsolidatsiyalashgan byudjeti tarkibiga kiruvchi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tashkil qiladi. Pensiya jamg'armasining mablag'lari Jamg'arma bo'limlari tomonidan tayinlanadigan pensiyalarga, bolalikdan nogironlarga, davlat pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lmagan keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalarga, korxonada tugatilganda, mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda mayiblangan, kasb kasalligiga uchragan yoki sog'lig'iga boshqa shikast etkazilgan xodimga zararni qoplashga, shuningdek, dafn marosimi uchun nafaqalarga, bola tug'ilganda beriladigan nafaqalarga, 16 yoshgacha bo'lgan

---

<sup>4</sup> Abdullayev Z.A. Xorijiy davlatlarda pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish muammolari. "Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – T.:Universitet. 2014 y. 15 b.

nogiron bolaning ota-onalariga qo‘shimcha ta‘til uchun to‘lovlarga va boshqa ijtimoiy to‘lovlarni to‘lashga yo‘naltiriladi.

“Bugungi kunda mamlakatimizda 60 yoshdan oshganlar soni 2 million 873 mingdan ko‘proq kishini tashkil etadi. Mustaqillik yillarida xalqimizning o‘rtacha yoshi 1990 yildagi 67 yoshdan 73,5 yoshga, ayollar o‘rtasida esa 75,8 yoshga etdi. Ayni paytda yurtimizda 225 ming nafar 80 yoshdan, 44 ming nafar 90 yoshdan, 8 ming 700 nafar – 100 yoshdan oshgan tabarruk qariyalar yashamoqda. Ular orasida 3 ming 109 nafar Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, 69 ming 994 nafar front ortida mehnat qilgan insonlar bor”<sup>5</sup>. Shu munosabat bilan “keksalarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish va e‘tiborni kuchaytirish, ularning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qonunchilik va me‘yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, pensiya ta‘minoti va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, yoshi ulug‘ insonlarga davlat xizmatlari ko‘rsatishning eng qulay tizimini shakllantirish”<sup>6</sup> bilan bog‘liq “Keksalarni e‘zozlash yili” Davlat dasturida belgilangan vazifalar mamlakatimiz pensiya ta‘minoti tizimi zimmasiga ham katta mas‘uliyat yuklamoqda.

Fuqarolarning keksaygandagi hayot faoliyati daromad manbalari va ularning barqarorligi kabi jiddiy muammolar bilan bog‘liq bo‘ladi. Kishilik taraqqiyoti davomida insonlar keksaygan sari, to‘laqonli mehnat qilish qobiliyatini yo‘qota borgan sari kambag‘allikka duchor bo‘la boshlagan, farzandlarining qo‘liga tobora ko‘proq qaram bo‘la boshlagan. Farzandlarning o‘zi ham o‘z tirikchiligini o‘tkazish, hayot uchun kurashish yo‘lida ish qidirib bir joydan boshqa joyga sarson bo‘lishga majbur bo‘lganda, qariyalarining ahvoli undan-da yomonlashgan. Agrar ishlab chiqarishga asoslangan jamiyatlarda keksaygan jamiyat a‘zolarining ahvoli hozirgi kunlarda ham ayanchliligicha qolmoqda.

Agar yuz yil oldingi tarixga nazar tashlasak, xatto sanoati rivojlangan mamlakatlarda ham mehnatkashlarning kamdan-kam qismi mehnat faoliyatini

---

<sup>5</sup> Prezident I. Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi. Xalq so‘zi.// 06.12.2014.

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 18 fevraldagi “Keksalarni e‘zozlash yili” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2302-sonli Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015 y., 8-son, 91-modda.

to'xtatgandan keyin ishonchli daromadga ega bo'lgan. Ularning ko'pchiligi kambag'allikka duchor bo'lishdan qo'rqib, imkoni boricha uzoqroq ishlab qolishga harakat qilgan. Nogiron bo'lib qolish yoki boquvchisini yo'qotish kabi hayotiy hodisalar esa ularning kambag'allik yoki birovga qaramlikka mahkum bo'lish ehtimolini yanada kuchaytirgan. Shu sababli eng ommaviy va moliyaviy oqibatlariga ko'ra eng og'ir ijtimoiy havf-xatarining - qarilik, nogironlik, boquvchisini yo'qotish havf-xatarining mavjudligi pensiya dasturlarining shakllanishiga olib keldi.

Natijada XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida ko'pchilik sanoati rivojlangan mamlakatlarda milliy pensiya tizimlarining shakllanish jarayoni kishilik taraqqiyoti tarixiga muhim bosqich bo'lib kirdi. Shu davrdan boshlab “qarilik – bu kambag'allik, nochorlik” degan tushunchalar birmuncha eskirdi. Bundan tashqari, ko'pchilik mamlakatlarda fuqarolar mehnat faoliyatini tugatgandan keyin ham normal hayot faoliyatini kechirish uchun etarlicha moddiy ta'minlanish imkonini beradigan pensiyalarga ega bo'ldilar. Ularning moddiy ta'minot darajasi xatto ayrim ishlovchi, lekin ko'p bolali yosh mehnatkashlardan ham ko'ra yuqoriroq bo'la boshladi.

“Pensiya” so'zining o'zi lotincha “pension” so'zidan olingan bo'lib, mehnat qobiliyatini, va demak, ish haqi ko'rinishidagi daromad manbaini yo'qotganda, qarilikda, nogironlikda yoki boquvchisini yo'qotganda moddiy ta'minlash uchun muntazam to'lanishi mo'ljallangan pullik to'lov ma'nosini anglatadi. Shundan kelib chiqqan holda, pensiya tizimi deganda mamlakat fuqarolarini ma'lum yoshga etganda, nogironlikda, boquvchisini yo'qotganda moddiy jihatdan ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan huquqiy, moliyaviy, tashkiliy munosabatlar, shuningdek, maxsus ixtisoslashgan tashkiliy tuzilmalar yig'indisi tushuniladi<sup>7</sup>.

Turli mamlakatlar milliy pensiya tizimlarining shakllanishida quyidagi ikki yondoshuv asos bo'lib xizmat qilgan: birinchi yondoshuvga ko'ra, pensiya tizimiga tortilgan barcha fuqarolar uchun pensiya daromadining minimal hajmi

---

<sup>7</sup> Sh. Allayarov, D. Toshmuxammedova. Davlat pensiya ta'minoti (o'quv qo'llanma) – T.: «IQTISOD-MOLIYA» 2014, 37 bet.

kafolatlansa, ikkinchi yondoshuv bo'yicha pensiya - ish haqining zaxiralanuvchi qismi bo'lib, sug'urtalangan xodimga uning pensiyaga chiqish oldidagi daromadiga monand moddiy ta'minotga ega bo'lishni kafolatlaydi.

Pensiya ta'minotining rivojlanishi jarayonida har ikkala maqsad uyg'unlashib ketdi, universal pensiya tizimlari sug'urtaviy tizimlar bilan to'ldirildi, sug'urtaviy tizimlar esa minimal kafolatlarni o'z ichiga ola boshladi. Shunday qilib, pensiyalarning ikkiyoqlama tabiati nafaqat umumqabul qilindi, balki deyarli barcha rivojlangan pensiya tizimlarining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qildi.

Pensiyalarning ikkiyoqlama xarakteri shunda namoyon bo'ladiki, birinchidan, pensiya kambag'allikdan himoyalab, pensiya daromadining minimal darajasini kafolatlasa, ikkinchi tomondan, ma'lum belgilangan sug'urta holatlari yuzaga kelganda ish haqining o'rnini bosadi, ya'ni yo'qotilgan daromadni yoki uning ko'p qismini kompensatsiyalaydi.

Aksariyat pensiya tizimlarining asosini, ularning institutsional tuzilishi yoki qo'llaniladigan moliyaviy mexanizmlaridan qat'iy nazar, ijtimoiy pensiya sug'urtasi tamoyillariga qurilgan pensiya dasturlari tashkil qiladi.

## **1.2. O'zbekiston Respublikasida davlat pensiyalarining turlari va ularni tayinlashning tashkiliy-huquqiy asoslari**

Ma'lumki, jahon amaliyotida pensiya tizimlarining quyidagi modellari mavjud va ma'lum darajadagi muvaffaqiyat bilan amal qilib kelmoqda<sup>8</sup>:

- "avlodlar birdamligi" tamoyiliga qurmlgan qayta"tqqsimdovchi tizim ¶ penshyq to'lovi echun joriy xabajatlarli majburiy sug'urta to'lovllr) hisobidan moliyalachtirish;

- jamg'arib boril!digan pensiya ta'minopi – fuqarolarning penqiya ta'minotini ularninc!shaxsiy jamg'armilariga avvahdan o'tkazilib kelinçan mablag'lar hisojidan amalga osliriLishi;

---

<sup>8</sup> B. Nurmuhamedova "Davlat pensiya ta'minoti" fani ma'ruza taqdimotlari asosida. T. 2016 y.

- aralash pensiya ta'minoti – avl/dlar birdamligi va jamg'ariladigan pensiya ta'minoti tizimlarining elementlaridan tashkil topgan pensiya ta'minoti.

Bugungi kunda mamlakatimizda bozorni (iqtisodiyoti talablarida) kamib chiqqan holda, shuningdek – fuqarolarning pensiya ta'minotini yaxshilash, ularning uarilikda munosib moddiy foyvonlikda (ashashlarini rag'batlantirish) va sharoit yaratish maqsidida avlash pensiya ta'minoti tizim shakllanloida.

O'zbekistonda Bejpublikasida pensiya ta'minotining qonuniy-huquqiy asoslarini quyidagilar ta'kid qilaDi:<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat Pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni (1991 yil 3 sentyabrda qabul qilingan);
- O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning kamg'arib o'bori Ladigan pensiya ta'minoti To'g'risida"gi Qonuni (2004 yil 2 dekabrda qabul qilingan); "Harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonun (1990 yil 28 aprelda qabul qilingan);
- "Harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonun (1990 yil 28 aprelda qabul qilingan);
- Pensiya ta'minoti bilan bog'liq munozaralarni taruivoa soluvchi boshqa Prezident farmonlari va qarorlari, Vaxirlar Ma'nosining qarorlari (va yo'riqnomalar).

Ko'pchilik pensiya (tizim) ridagi islohotlar aynan iqtisodiy samaradkorlikka urishishga qaratiLmo1da faqat bundan ko'p hollarda ijtimoiy Samaraga putur etmoqda. Iqtisodiy samaradkorlik sug'urta to'lovlarini to'lovchi faol axoli bilan pensiya Oluoshé aholi o'rtasida rhuneay qayti taqsimlashni nazarda tudadika, mablag'larning bunday qayta taqsimoti ishlovchi aholiga og'ir yuk bo'lib yotmasin, shu bilan birga, pensiya to'lash bilan bog'liq bo'lgan joriy va kulgösedagi majburiyatlarni bajarish uchun etarli mablag'lapni ta'minlay olsin. Boshqacha aytganda, pensiyalar bo'yicha sug'urta tarifining miqdori yoki ijtimoiy

<sup>9</sup> Amaldagi qonunchilik asosida talaba tomonidan tayyorlandi

soliq bo'yicha soliqqa tortish stavkasi pensiya tizimi moliyaviy majburiyatlarini qoplash uchun etarli darajada belgilanishi, ammo iqtisodiy o'sishga va mehnat unumdorligining oshishiga halaqit beradigan hamda milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini pasaytiradigan darajada yuqori bo'lmisligi zarur.

Pensiya ta'minoti milliy g'oyani aks ettiradi hamda milliy iqtisodiy siyosat markazida turadi. Oxirgi o'n yilliklar mobaynida ko'p mamlakatlar o'zlarining amaldagi pensiya tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy va demografik sharoitlarining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan isloh qilish zarurati bilan to'qnash kelmoqdalar.

XXI asr boshlarida jahon mamlakatlarida avlodlar birdamligi va jamg'arish tizimlariga asoslangan pensiya tizimlari amal kilmokda. Birdamlik pensiya tizimi avlodlar, ish beruvchilar va ishlovchilar, yuqori va past ish haqi oluvchi xodimlar birdamligiga asoslangan va u birdamlik tamoyili asosida moliyalashtiriladn. Birdamlik pensiya tizimi davlatga tegishli bo'lib, uni korxonaga yoki bir tarmoq miqyosida tashkil etish mumkin emas. Birdamlik tizimining muhim jihati shundaki, u qayta taqsimlash tamoyiliga asoslanganligi uchun pensionerlar o'rtasida qashshoqlikni jiddiy kamaytiradi.

Avlodlar birdamligi tamoyiliga qurilgan O'zbekiston Respublikasining pensiya tizimi ham oxirgi yillarda avomida qator o'zgarishlarfi boshidan kechirty, bu o'zgarishlar birinchi navbatda mamlakat iqtisodiyotining bozor sharoitlariga moslashtirish va bozor munosabatlarga o'tish bilan bog'liq bo'ldi. Jahon amaliyoti asosida davlat pensiya tizimining moliyaviy resurslari davlatning mustasil byudjetdan tashqari fondiga – Pensiya jamg'armasiga birlashtirildi, pensiya ta'minotida sug'urtavmiy tamoyillar mustahkamlanib bordi, butunlay yangi bo'lgan jamg'arib foriladigan pensiya ta'minoti tizimi shakllandi<sup>10</sup>.

Shu bilan bir qatorda, iustaqil hik yillarida mamlakatimiz pensiya tizimining tashkiliy va qonun-huquqiy asoslari ham shakllanib, takomillarhib bor'adi. Bu boradawi dastlabki qadam bo'lib O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'riqida"si Qonuni (1993 yil 31 sentyabr) ning qabul

---

<sup>10</sup> Sh. Allayarov, D. Toshmuxammedova. Davlat pensiya ta'minoti (o'quv qo'llanma) – T.: «IQTISOD-MOLIYA» 2014, 43 bet.

qilinishi bo'ldi. Ushbu qonun va hukumat)oiú`ôomonidan qabul qilingan bgshqa me'ykriy hujjatlar Amaldagi pensiy! ta'minoti pizimining huluqiy asosini tashkil etdi. Bu qonunning m/hiuatini pensionerlarîjg(jqmiyatda tutgan o•rni, bozor iqtisodiyôdi 3haroitida ularni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himky`lash, pen{iya miqdorini bevosita mehnat stajhning davomiyligi va msh haqi miqdoriga bog'liqligini ta'minlash taShkil etadi.

PEn3iqa ta'minotm tizimi qmal qhlishining tashkiliy-huquqiy asoslari tn'o'risida gap boZar ekan, dastlab ahol)ni ijtimoiy muhofazq qilióh tizimini yanada 4akomillasxtirisi, peosIya ta'minotI uch5n majburiy badallarning to'liq iâlib tushishi hamda davlat ijtimoy sug'urtasi "o'ùich! pejsiya va nafaqalarni to™lashga xarajâtlarni o'z0Vaqthda momiyAvky ta'minlash uahun ijtimoiy taÔminot"organlarining mar'ullyaui~i oshiòisH maq{adida *Vazirlar Mahkamasinmng 1996 yil 27 dekabr 459-son qarori* bilan Vazirlip Mahkamaqi huzuridagi Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi .egmzida O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minod vazirligi0hUzupida Qoraqalpog'iston RespuflikaSi Ijtimoiy ta'minoT vazirligm va ijthmoy(4a'minot mahalliy organlari qoshidi tegishli hududiy bo'linmqlari`va bo'Ilmlapi bo'lgan Pensi{a jamg'armasi tashki, etilgan edi.

Pensiya jamg'aralari ning pel mablag'lari 1997 yal 1 yanvapdan boshlac O'zbekiston Respurlikasmning Davlat b'udjetiga kiritylda, runda bu jamg'arma mablag'larini shaklnantirish va sarflashning maqsadli yo'nadtirganligi saqlab qolindi.

Pensiya jamg'armasiga rahbarlik qilish Pensiya jamg'armasining 9 kisiidqn iborat boshqaruv hamda doimiy faohiyat ko'rsauva(i ijro etuvchi organi(- Ijro etuvchi dhreksiyasi tolonidan amqlga orhirildi. O'zbekiston Respublikasi Ijuimoiy ta'minot vazira "Pensiya jamg'armasi boshqaruvi raiwi xisiblanaz edi"<sup>11</sup>>

Pensiya ta'minoti tizimidagi ma'muziy va iqtisodii islohotlarni mazchil am'lga oshirish d'irasita *Vafirlar mahkamacinkng 2000 yil 15 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minoti tizimini ta'minlash bhoratadbirlar) to'g'risida"wi 444-sonli qarori* bilan "pejsiya Ta'minoti tizimidagi fo'ohqaruf tuzilmasini takomillashtirksh, davlat ijuimoiy sug'urtasi bo'yicha majbuviy badqllar to'diq'yig'ilishini ko'p'yitirish

---

<sup>11</sup> Sh. Allayarov, D. Toshmuxammedova. Davlat pensiya ta'minoti (o'quv qo'llanma) – T.: «IQTISOD-MOLIYA» 2014, 112-114 b.

amaldagi oshqariv tuzilmalariNi qisqartirish hamda aensiyalir va naf!qalar tm'lashga yo'neltiriladigan mablag'lardan foydalanish samaridorliginm o'qirish maqsadida" 201 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiqton respublikaSi Ijtimoiy ta'minot va uirliGi huzuridqgi Pensiya jamg'armasi O'zbekiston Respublicasining byudjetfan tashqqzi Pensiya(jamg'a'iasigá aylantirildi. Ushbu qaror bilan:

- byudjetdan vashqari Pensiya jamg'armasiga miblag' ajrapisl va badallar miqdori hamdq ularni to'lash muddaulari O'zbekiston Respublikasi Tazirlar Mahkamasini tomknida belgilanishi;

- byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlar davlat soliqlari va yig'imlariga tenelashtirilishi; byudjetdan taohqari Pensiya jamg'armasining daromadlar) o' xarajatnazi har yili O'zbekiston Respublikasining byudjeti(tarkibiGa kiritilishi:

- byudjetdan taohqari Pensiya jamg'armasining daromadlar) o' xarajatnazi har yili O'zbekiston Respublikasining byudjeti(tarkibiGa kiritilishi:

- Pensiya jamo'armasiga mirlag' vo'plash va mabmag' in'liq o'ushishi ustidan nazorat qilish funktsiyasi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq so'm)tasiga yuklatilishi belgilab qo'xildi.

Natijada Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasining markaziy apparati (ijroiya direktsiya), hududiy bo'linmalarH, tuman \*shahar) o'limlari 200q yil 1 yanvardan oshlab tugatildi, tegatilgan Pensiya jamg'armasining markaziy apparati va uning hududiy tuzilmalari/eng mol-mulki, asosiy va aylanmi mablag'liri vazirlik markaziy apparati va uning hududiy tuzilmalarknnc balansiga qabul qilindi<sup>12</sup>.

Byudjetdan taohqari Pensiya jamg'armasini boshqariqh bo'yicha funktsiyalar O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga yuklatildi, O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vaziri va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, pq-anlaò

---

<sup>12</sup> Sh. Allayarov, D. Toshmuxammedova. Davlat pensiya ta'minoti (o'quv qo'llanma) – T.: «IQTISOD-MOLIYA» 2014

va` (aharlar` mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlarining rahbarlari byudjetdan tashqari Pensiya jamg`armasi mablag`larini boshqaruvchilar hisoblanishi belgilab qo`yildi. Shuningdek, Pensiya jamg`armasi mablag`lari kelib tushishi va ulardan maqsadli foydalanish uchun jamoat nazorati funktsiyasi "Nuroniyy" jamg`armasi huzuridagi "Nazorat kengashi" jamoat komissiyasiga yuklatildi.

Keyinchalik, ijtimoiy ta`minot tizimida davlat kafolatlarini amalga oshirish hamda pensiyalar, nafaqalar va kompensatsiyalarni to`lashga yo`naltiriladigan mablag`larning maqsadli va aniq sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, shuningdek byudjetdan tashqari Pensiya jamg`armasini samarali boshqarishni tashkil etish maqsadida *Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 21 noyabrdagi "Byudjetdan tashqari Pensiya jamg`armasini boshqarishni yanada takomillashtirish to`g`risida"gi Qarori* bilan 2005 yil 1 yanvardan boshlab O`zbekiston Respublikasining byudjetdan tashqari Pensiya jamg`armasi O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg`armasiga aylantirildi.

Quyidagilar byudjetdan tashqari Pensiya jamg`armasining asosiy vazifalari etib belgilandi:

- fuqarolarning davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy ta`minot va ijtimoiy sug`urtaga bo`lgan huquqlarini amalga oshirish;
- majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to`lovlarni byudjetdan tashqari Pensiya jamg`armasining yagona yig`ma hisobraqamida jamlash;
- 2005 yil 1 yanvardan boshlab pensiyalar, nafaqalar va kompensatsiyalarni to`lash xarajatlarini moliyalashtirish;
- byudjetdan tashqari Pensiya jamg`armasiga mablag`larning to`liq tushishi va o`z vaqtida sarflanishi ustidan nazoratni ta`minlash.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg`armasining daromadlari va xarajatlari O`zbekiston Respublikasining yig`ma byudjeti tarkibiga kiritildi. Davlat soliq qo`mitasi byudjetdan tashqari Pensiya jamg`armasiga majburiy ajratmalar, badallar va to`lovlarni yig`ish va ularning to`liq tushishini nazorat qilish funktsiyalarini

amalga oshiradigan, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi pensiyalar, nafaqalar va kompensatsiyalarning o'z vaqtida tayinlanishi va to'lanishi, shuningdek korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha xarajatlarning belgilangan tartibda moliyalashtirilishi ustidan nazoratini ta'minlaydigan bo'ldi.

Pensiya jamg'armasining barcha darajalardagi hisobraqamlaridagi 2004 yil 31 dekabr holatiga ko'ra qoldiq mablag'lari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobraqamiga o'tkazildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda olib borilgan ma'muriy va iqtisodiy islohotlar doirasida Pensiya ta'minoti tizimining tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda pensiya ta'minoti tizimining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan o'z vaqtida moliyalashtirish hamda ularni to'liq hajmda to'lash, shuningdek respublika fuqarolarining pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan mablag'lardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida *2009 yil 30 dekabrda "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4161-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni* qabul qilindi. Ushbu farmon bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi va uning viloyatlar, shaharlar va tumanlarda bo'linmalari tashkil etildi. Natijada 2010 yilning 1 yanvaridan boshlab pensiyalar, shuningdek ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlarni tayinlash, moliyalashtirish, ularning to'lanishini hisobga olish va monitoringini yuritish Pensiya jamg'armasining tegishli hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladigan bo'ldi<sup>13</sup>.

---

<sup>13</sup> Sh. Allayarov, D. Toshmuxammedova. Davlat pensiya ta'minoti (o'quv qo'llanma) – T.: «IQTISOD-MOLIYA» 2014

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining hududiy bo‘linmalari fuqarolarning pensiya ta‘minoti va tibbiy-mehnat ekspertizasi masalalarining butun kompleksi uchun mas‘ul bo‘lgan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tizimiga kiruvchi funktsiyalar hamda tegishli tuzilmalarni topshirish hisobiga tashkil etildi. Natijada Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi zimmasiga qo‘shimcha ravishda quyidagi asosiy vazifalar va funktsiyalar yuklatildi:

- fuqarolarning davlat pensiya ta‘minotini tashkil qilish, fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to‘lovlarni tayinlash, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pensiyalar hamda boshqa to‘lovlarning miqdorlari qayta hisoblab chiqilishini ta‘minlash;

- pensiyalar hamda boshqa to‘lovlarni to‘liq hajmda moliyalashtirish va to‘lanishini tashkil qilish, ular bo‘yicha hisob va hisobotni yuritish;

- pensiyalar tayinlanishi va qayta hisoblab chiqilishini tizimli asosda doimiy tahlil qilish va monitoringini olib borish, fuqarolarning pensiya ta‘minotiga yo‘naltiriladigan mablag‘lardan qat’iyan maqsadli foydalanilishini ta‘minlash;

- mehnat mayibliyi yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik bo‘yicha tayinlangan pensiyalarni to‘lashga mablag‘larni da‘volar bo‘yicha aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda undirib olishni tashkil qilish;

- tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmati faoliyatini tashkil etish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrda *“O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”*gi PQ-1252-sonli Qarori bilan pensiya ta‘minoti tizimini boshqarishni tashkil qilishni takomillashtirish va uning faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hamda uning hududiy boshqarmalari va bo‘limlari O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ijtimoiy ta‘minot organlarining huquqiy vorislari (fuqarolarning pensiya ta‘minotini amalga oshirish bilan bog‘liq huquqlar va majburiyatlar qismida) bo‘lib hisoblanishlari belgilandi.

Yuqoridagi qarorga muvofiq, Pensiya jamg'armasining ijro etuvchi direktori Pensiya jamg'armasi Kuzatuvchilar kengashining taqdimnomasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadi, Pensiya jamg'armasi ijro etuvchi apparati hamda uning hududiy boshqarmalari va bo'limlarining xodimlariga moliya organlari xodimlari uchun belgilangan mehnat haqi shartlari tatbiq etiladi.

Nihoyat, Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagi 30-son qarori bilan *“O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi Nizom* tasdiqlandi va Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjat sifatida amalga kiritildi. Ushbu nizom Jamg'armaning asosiy vazifalari va funktsiyalarini, Jamg'arma daromadlarini shakllantirish manbalari va tartibini, pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni moliyalashtirish tartibini, Jamg'arma daromadlari va xarajatlari prognozini shakllantirish tartiblarini, Jamg'armani boshqarish va faoliyatini faoliyatini tashkil etish masalalarini belgilab berdi<sup>14</sup>.


Yuqorida ko'rib o'tilgan barcha qonuniy-huquqiy va me'yoriy hujjatlar davlat pensiya ta'minotini boshqarish va samarali tashkil etish uchun mas'ul bo'lgan davlat organlarining faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslarini tashkil etadi. Bundan tashqari, pensiya ta'minotini tashkil etish, barcha turdagi pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni hisoblash va to'lash, Pensiya jamg'armasi daromadlarini prognozlash va xarajatlarini amalga oshirish, pensiya ta'minoti bo'yicha moliyaviy nazoratni tashkil etish va o'tkazish kabi faoliyatlarni tartibga soluvchi bir qator me'yoriy hujjatlar mavjud bo'lib, ular pensiya ta'minoti borasidagi davlat siyosatining olib borilishiga monand ravishda o'zgarib va takomillashib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan pensiya qonunchiligiga muvofiq, pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa

---

<sup>14</sup> Sh. Allayarov, D. Toshmuxammedova. Davlat pensiya ta'minoti (o'quv qo'llanma) – T.: «IQTISOD-MOLIYA» 2014, 112-114 b.

to'lovlarni moliyalashtirish byudjetdan tashqari Pesiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Jamg'arma mablag'lari quyidagi toifadagi fuqarolarga ko'rsatilgan turdagi pensiya va nafaqalarni to'lash uchun sarflanadi (1.2-rasm):



**1.2-rasm. Jamg'arma mablag'larining sarflanishi<sup>15</sup>**


*Ishlaydigan va ishlamaydigan pensionerlarga davlat pensiyalarining barcha turlari, ya'ni yoshga doir pensiyalar, nogironlik pensiyalari, boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari to'lanadi.*

Bugungi kunda jami pensiya va nafaqa oluvchilarning 69,5 foizini yoshga doir pensiya oluvchilar, 12,7 foizini - nogironlik bo'yicha pensiya oluvchilar, 8,1 foizini boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha pensiya oluvchilar, 9,7 foizini boshqa turdagi nafaqa oluvchilar tashkil qiladi (1.3-rasm).

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida pensiya qonunchiligiga muvofiq, davlat pensiyalarining quyidagi turlari tayinlanadi:


<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pesiya jamg'armasi to'g'risidagi nizom asosida tuzildi.

- yoshga doir pensiya;
- nogironlik pensiyasi;
- boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi.



**1.3-rasm. 2016 yil 1 yanvar xolatida Pensiya jamg‘armasidan pensiya va ijtimoiy nafaqalar oluvchilarning tutgan ulushi (foizda)<sup>16</sup>**

Tahlil ob’ektimiz Karmana tumanida 2013 yilda jami 12817 nafar shahs pensiya va nafaqa oluvchi sifatida qayd etilgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich o‘sib borib, bugungu kunda 13493 nafarga etgan. Bu esa pensiya jamg‘armasi oldida moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini oshirishga bo‘lgan hatti harakatni ko‘chaytirish vazifalarini quyadi.



**1.4-rasm. Navoiy viloyati Karmana tumanida byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasidan pensiyalar va nafaqalar oluvchi fuqarolar soni<sup>17</sup>**

<sup>16</sup> O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi ma’lumotlari asosida

<sup>17</sup> O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi Karmana tumani bo‘limi ma’lumotlari asosida

*Yoshga doir pensiyalar.* Yoshga doir pensiya olish huquqiga erkaklar - 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda, ayollar - 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar. Pensiya tayinlash uchun etarlicha ish stajiga ega bo'lmagan shaxslarga yoshga doir pensiyalar kamida 5 yil ish staji mavjud bo'lgan taqdirda, bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

*Nogironlik pensiyalari.* Nogironlik pensiyalari belgilangan tartibda I va II guruh nogironlari deb topilgan shaxslarga tayinlanadi. Sog'lig'ini yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga qarab, nogironlikning uch guruhi aniqlanadi.

Nogironlik sabablari va guruhlari, shuningdek nogironlik boshlangan vaqt va nogironlikning qancha muddatga belgilanishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ular to'g'risidagi Nizom asosida ishlovchi tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) tomonidan aniqlanadi.

Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyalari ish stajidan qat'i nazar tayinlanadi. Umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyalari nogironlik boshlangan paytga qadar ish stajiga ega bo'lgan taqdirda tayinlanadi.

*Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari.* Vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladi. Bunda farzandlarga va qonunda belgilangan oilaning mehnatga qobiliyatsiz a'zolari hisoblanadigan a'zolariga pensiya ular boquvchining qaramog'ida turgan-turmaganidan qat'i nazar tayinlanadi.

Pensiya qonunchiligida amalda bo'lgan davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash bilan bog'liq amaliyot Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 sentyabrdagi "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 252-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizom" asosida tashkil etiladi. Ushbu nizomga ko'ra, shuningdek, boshqa qonun hujjatlarida ham belgilanganidek, Pensiyalarni tayinlash va to'lash

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi.

## I Bob bo'yicha xulosa

I-Bobni o'rganish asosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan pensiya qonunchiligiga muvofiq, pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni moliyalashtirish byudjetdan tashqari Pesiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi;

2. Ijtimoiy ta'minot - ma'lum bir kategoriyadagi fuqarolarni mamlakat rivojlanishining ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisalarning yuzaga kelishi natijasida boshqa jamiyat a'zolari bilan ijtimoiy tengligini ta'minlash maqsadida davlat byudjeti va mahsus ijtimoiy fondlar hisobidan moddiy ta'minlashga yo'naltirilgan davlat ijtimoiy siyosatining shakli hisoblanadi;

3. Bugungi kunda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan quyidagi pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar to'lanadi: ishlayotgan pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash, ishlaymaydigan pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash, davlat pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lmagan qariyalar va mehnatga qobiliyatsiz fuqarolarga nafaqalar berish, dafn marosimlari uchun nafaqalar, belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa xarajatlar.

4. Bugungi kunda jami pensiya va nafaqa oluvchilarning 69,5 foizini yoshga doir pensiya oluvchilar, 12,7 foizini - nogironlik bo'yicha pensiya oluvchilar, 8,1 foizini boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha pensiya oluvchilar, 9,7 foizini boshqa turdagi nafaqa oluvchilar tashkil qiladi;

5. O'zbekiston Respublikasida pensiya qonunchiligiga muvofiq, davlat pensiyalarining quyidagi turlari tayinlanadi: yoshga doir pensiya, nogironlik pensiyasi, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi. Tahlil ob'ektimiz Karmana tumanida 2013 yilda jami 12817 nafar shahs pensiya va nafaqa oluvchi sifatida qayd etilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich o'sib borib, bugungu kunda 13493 nafarga etgan. Bu esa pensiya jamg'armasi oldida moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini oshirishga bo'lgan hatti harakatni ko'chaytirish vazifalarini quyadi.

## **II BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BYUDJETDAN TASHQARI PENSIYA JAMG‘ARMASIDAN TO‘LANUVCHI PENSIYALARNI HISOBLASH VA TO‘LASH TARTIBI**

### **2.1 Yoshga doir pensiyalarni tayinlash va to‘lash amaliyoti**

O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning pensiya ta‘minoti tizimi to‘g‘risidagi” Qonunga asosan, fuqarolar ma‘lum belgilangan yoshga etib ish stajiga ega bo‘lganlarida pensiya tayinlanishi belgilab qo‘yilgan. Yoshga doir pensiya Respublikamizdagi keksa fuqarolarni ijtimoiy ta‘minlashning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. Insonni keksaygan chog‘ida moddiy ta‘minlash imkonini yaratib beruvchi moddiy mexanizm barpo qilish bozor iqtisodiyoti tamoyillaridan biri hisoblanadi. Yoshga doir pensiyaga to‘xtaladigan bo‘lsak, umumiy asoslarga ko‘ra yoshga doir pensiya olish huquqi fuqarolar belgilangan pensiya yoshiga yetgan paytdan va ularda muayyan ish staji bo‘lganda yuzaga keladi.

Yoshga doir pensiya deganda, asosan, fuqarolarning o‘tgan davrdagi ish stajini, jamiyat rivojlanishiga qo‘shgan hissasini hisobga olgan holda umrbod tayinlanadigan davlat pensiya ta‘minotining turlaridan biri tushuniladi. Yoshga doir pensiya olish huquqiga erkaklar 60 yoshga to‘lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo‘lgan taqdirda, ayollar 55 yoshga to‘lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo‘lgan taqdirda ega bo‘ladilar (2.1-jadval).

Xarbiy xizmatchilarni, shuningdek ichki ishlar organlarining boshliqlari va oddiy xodimlar tarkibidan bo‘lgan shaxslarni hamda ularning oila a‘zolarini pensiya bilan ta‘minlash shartlari, normalari va tartibi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Ularga qonunda nazarda tutilgan asoslarda pensiyalar olish huquqi ham beriladi. Bunda xarbiy xizmatchilar, shuningdek ichki ishlar organlari boshliqlari va oddiy xodimlar tarkibidan bo‘lgan pul ta‘minotining barcha turlari fuqarolarning ish haqi singari bir xilda hisobga olinadi.

**Yoshga doir pensiya olish huquqiga umumiy talablari<sup>18</sup>**

<b>Jinsi</b>	<b>Yoshi</b>	<b>Ish staji</b>
<b>erkaklar</b>	<b>60 yoshga to'lganda</b>	<b>kamida 25 yil</b>
<b>ayollar</b>	<b>55 yoshga to'lganda</b>	<b>kamida 20 yil</b>

Pensiya miqdori ish stajining muddatiga muvofiq bo'lib, quyidagilardan tashkil topadi:

- pensiyaning tayanch miqdori;
- ish staji uchun pensiyaning oshirilishi;
- pensiyaga qo'shiladigan ustama haq.

Pensiya tayinlashda talab etiladigan ortiqacha ish stajining har bir to'liq yili uchun yoshga doir pensiyaning tayanch miqdorlari - pensiya tayinlash uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 1 foizi miqdorida oshiriladi.

Yoshga doir pensiya agar pensiya olish huquqi paydo bo'lgan kundan boshlab uch oy muddat ichida pensiya so'rab murojaat etilgan bo'lsa, pensiya yoshiga to'lgan kundan e'tiboran tayinlanadi. Ushbu pensiya umrbod tayinlanadi.<sup>19</sup> Yoshga doir pensiyalarning tayanch miqdorlari to'liq pensiya uchun pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin rasmiy belgilangan eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida. Pensiyani hisoblab chiqarish uchun, ishdagi tanaffuslar mavjudligidan qat'i nazar, butun mehnat faoliyati davomidagi istalgan ketmaket besh yil uchun (pensiya so'rab murojaat etgan kishining tanlovi bo'yicha) amaldagi o'rtacha oylik ish haqi olinadi. O'rtacha oylik ish haqi ketma-ket ishlangan oltmish kalendar oydagi ish haqining umumiy miqdorini oltmishga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Bunda pensiya so'rab murojaat etgan kishining xohishiga qarab, ishga kirish yoki ishdan bo'sh munosabati bilan ish kunlari soni to'liq bo'lmagan oylar ishlangan to'liq

<sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-938-XII-son. 03.09.1993.

<sup>19</sup> O'sha erda, 47-modda, 1-band

kalendar oylar sifatida hisobga olinadi. Pensiya so‘rab murojaat etgan kishi etti yildan oz vaqt ishlagan hollarda o‘rtacha oylik ish haqi ishlangan kalendar oylaridagi ish haqining umumiy miqdorini shu oylar soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi. Mavsumiy ishlarda band bo‘lgan xodimlarga pensiyalar tayinlashda amaldagi o‘rtacha oylik ish haqi istalgan ketmaktet besh mavso‘mdagi ish haqini oltmishga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

Pensiyani hisob-kitob qilish uchun eng kam ish haqining sakkiz hissasidan ortiq bo‘lmagan ish haqi olinadi. Pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o‘rtacha oylik ish haqi eng kam oylik ish haqi miqdoridan oz bo‘lgan yoki ish haqi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar umuman bo‘lmagan hollarda ish staji uchun pensiya eng kam oylik ish haqiga qarab hisoblab chiqariladi. Ta‘minot badallari hisoblanadigan ish haqining barcha turlari pensiyalarni hisoblab chiqarish uchun ish haqiga qo‘shiladi. Davlat tomonidan ijtimoiy ta‘minotlanmaydigan shaxslarning pensiyasini hisoblab chiqarish uchun ish haqiga ta‘minot badallari olinadigan mehnat haqi turlariga o‘xshash pul ta‘minotining barcha turlari qo‘shiladi<sup>20</sup>.

Pensiya so‘rab murojaat etgan kishining xohishiga binoan o‘quv davrida to‘langan stipendiya ish haqiga tenglashtiriladi. Ish vaqtini hisob-kitob qilish mumkin bo‘lmagan xodimlarning (fermerlar, yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar, ayrim fuqarolarning yumushlarini bajaruvchilar va hokazo) pensiyalarini hisoblab chiqarish uchun ish haqi miqdori O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga to‘langan ta‘minot badallari miqdoriga qarab aniqlanadi.

Ish haqining natural qismi ijtimoiy ta‘minotga o‘tkazilgan badallar miqdoriga qarab baholanadi. Ishlovchilarning ish haqiga mintaqaviy koeffitsient belgilangan hududlarda yashovchi shaxslar va oilalarga pensiya tayinlashda mintaqaviy koeffitsient e‘tiborga olingan holda hisoblab chiqilgan amaldagi ish haqi hisobga olinadi. Boshqa davlatlardan ko‘chib kelgan, O‘zbekiston Respublikasida ishlamagan fuqarolarga pensiyalar O‘zbekiston dagi tegishli kasb hamda

---

<sup>20</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2011 yil 8 sentyabrda qabul qilingan 252-son Qarori asosida

malakadagi xodimlarning pensiya tayinlanayotgan vaqtdagi o'rtacha oylik ish haqiga asoslangan holda hisoblab chiqariladi.

Basharti, bunday kasb hamda malakalar respublikada bo'lmasa, o'rtacha oylik ish haqini aniqlash tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab beradi. Chet elda ishlashga yuborilgan xodimlarning o'rtacha oylik ish haqini hisoblab chiqarishda ular chet elga yuborilishidan oldin olgan ish haqi hisobga olinadi.

Quyidagilar ish stajiga qo'shib hisoblanadi<sup>21</sup>:

- faoliyat turi, mulk va xo'jalik yuritish shakllaridan qat'i nazar, xodim davlat tomonidan ijtimoiy ta'minotlangan holda bajargan har qanday ish, agar u O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ta'minot badallari to'lagan bo'lsa. 1965 yildan keyingi davr uchun jamoa xo'jaligidagi ish stajini hisoblab chiqarishda, agar jamoa xo'jaligi a'zosi uzrsiz sabablarga ko'ra jamoa xo'jaligida belgilangan mehnatda ishtirok etish minimumini bajarmagan bo'lsa, ishlangan vaqtning amalda davom etgan davri hisobga olinadi. Ijodiy faoliyat bilan mashg'ul xodimlarning ish stajini, basharti ular O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ta'minot badallari to'lagan bo'lsalar, ijodiy uyushmalarning boshqaruvlari ana shu muallifning asari e'lon qilingan yoki birinchi marta jamoat oldida ijro yoki namoyish etilgan kundan e'tiboran belgilaydilar.

- harbiy xizmat va partizan otryadlari hamda qo'shilmalarida bo'lish, davlat xavfsizligi organlarida va ichki ishlar organlarida xizmat qilish;

- idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar, harbiylashtirilgan soqchilikdagi, maxsus aloqa organlari va tog'konqutqaruv qismlaridagi xizmat;

- yakka tartibdagi mehnat faoliyati, shu jumladan yakka (guruhli) ijara sharoitidagi yoki shaxsiy yordamchi, dehqon (fermer) xo'jaligidagi faoliyat

---

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 2011 yil 8 sentyabrda qabul qilingan 252-son Qarori asosida

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ta'minot badallari to'langan taqdirda<sup>22</sup>.

- I guruh nogironiga yoki 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolaga, shuningdek o'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan (davolash muassasasining xulosasiga ko'ra) 80 yoshga to'lgan qariyalarga qarab turilgan vaqt;

- oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, bilim yurtlarida, kadrlar tayyorlash, malaka oshirish va yangi ixtisosni o'rganish maktablari va kurslarida, doktoranturada va klinik ordinaturada kunduzgi o'qish, shu jumladan chet elda o'qish;

- onaning (o'gay onaning) bolalarini (o'gay o'g'illarini, o'gay qizlarini) go'daklik yoshida parvarishlagan vaqti, lekin ko'pi bilan har bir bola 3 yoshga to'lguncha, hammasini jamlaganda 6 yil doirasida;

- ofitserlar tarkibidan bo'lgan shaxslarning, praporshchiklarning, michmanlarning va muddatdan tashqari harbiy xizmatchilarining xotinlari, ularni ishga joylashtirish imkoniyati bo'lmagan joylarda erlari bilan yashagan vaqt, lekin 10 yildan oshmagan davr;

- O'zbekiston Respublikasi muassasalari va halqaro tashkilotlar xodimlari xotinlarining chet elda bo'lgan vaqti, lekin 10 yildan oshmagan davr;

- cho'ponlarning xotinlarining ishga joylashish imkoniyati bo'lmagan yaylovlarda eri bilan birga yashagan vaqti, lekin 10 yildan oshmagan davr.

Chet elda ishlangan davrlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga belgilangan ta'minot badallari to'langan taqdirda, agar davlatlararo bitimlarda o'zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, mehnat stajiga qo'shib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining yollanma (bitim) asosida chet elda ishlaganligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organlar mehnat daftarchasiga kiritgan qaydnomalarga qarab aniqlanadi. Chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga chet eldagi ishi O'zbekiston Respublikasida ishlanganiga

---

<sup>22</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 2011 yil 8 sentyabrda qabul qilingan 252-son Qarori asosida

to'g'ri keladigan stajning 1-3 hissasidan oshmagan miqdorda<sup>23</sup>, agar davlatlararo bitimlarda (shartnomalarda) o'zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, stajga qo'shiladi.

Mehnat daftarchasi ish stajini tasdiqlovchi asosiy hujjat hisoblanadi. Mehnat daftarchasi yoki unda tegishli yozuvlar bo'lmagan taqdirda ish stajini tasdiqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Ishlamaydigan pensionerlarga pensiyalarni ular istiqomat qilib turgan joydagi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining hududiy bo'limlari to'laydi. Ishlab turgan pensionerlarga pensiyalar ularning ish joyida, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'lanadi.

Pensionerga hisoblab chiqarib qo'yilgan, lekin uning tomonidan o'z vaqtida talab qilib olinmagan pensiya puli pensiyani olish maqsadida murojaat etilganidan oldingi uch yildan oshmagan davr uchun to'lanadi. Pensiyani tayinlovchi yoki to'lovchi organning aybi bilan o'z vaqtida olinmay qolgan pensiya puli o'tgan davr uchun muddati cheklanmagan holda to'lanadi. Pensioner ozodlikdan mahrum qilingan taqdirda tayinlangan pensiyani to'lash ozodlikdan mahrum qilingan davr uchun to'xtatib qo'yiladi. Pensioner olishi lozim bo'lgan va uning vafoti munosabati bilan olinmay qolgan pensiya puli meros tarkibiga kiritilmasdan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi bilan ta'minlanadigan shaxslar doirasiga kiruvchi oila a'zolariga to'lanadi. Otaonasi, eri (xotini), shuningdek pensioner bilan u vafot etgan kunigacha birgalikda yashab turgan oila a'zolari bu pulni, ular boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi bilan ta'minlanadiganlar doirasiga kirmaganlari taqdirida ham olish huquqiga ega bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ro'yxatlarga muvofiq fuqarolarning ayrim toifalari imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar, chunonchi:

- yoshidan qat'i nazar pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar va lavozimlarning belgilangan tartibdagi ro'yxati;

---

<sup>23</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 2011 yil 8 sentyabrda qabul qilingan 252-son Qarori asosida

- umumiy belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlarning belgilangan tartibdagi ro‘yxati;

- umumiy belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, vazifalar va ko‘rsatkichlarning belgilangan tartibdagi ro‘yxati.

Imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga, shuningdek urush nogironlari, bolalikdan nogiron farzandlarning onalari, liliputlar, pakanalar va ekologiya falokati mintaqasida ishlagan fuqarolar egadirlar<sup>24</sup>.

Shuningdeq yoshidan qat’i nazar, quyidagilar imtiyozli pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar:

- kon sanoatidagi etakchi kasb egalari bo‘lgan xodimlar basharti, ular ana shu ishlarda kamida 20 yil ishlagan bo‘lsalar ;

- bevosita er osti va ochiq kon ishlarida (shu jumladan, konqutqaruv qismlarining shaxsiy tarkibi) ko‘mir, ma’danlar va boshqa foydali qazilmalarni qazib olishda, shaxtalar va konlar qurilishida to‘liq ish kuni davomida band bo‘lgan xodimlar basharti, ular ana shu ishlarda kamida 25 yil ishlagan bo‘lsalar;

- uchuvchilar va uchuvchi sinovchilar tarkibiga kiruvchi xodimlar, ular xizmat qilgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning idoraviy bo‘ysunuvidan qat’i nazar, belgilangan xizmat muddatini ana shu lavozimlarda erkaklar kamida 25 yil va ayollar kamida 20 yil ado etganlari taqdirda.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan xodimlar salomatligiga (kasalligiga) ko‘ra uchish ishlaridan bo‘shatilgan taqdirda, belgilangan xizmat muddatini erkaklar kamida 20 yil va ayollar kamida 15 yil ado etgan bo‘lsalar;

- teatrlar va boshqa teatrtomosha korxonalarini artistlarining ayrim toifalari;

- sportchilarning ayrim toifalari ish staji kamida 20 yil bo‘lganda.

Qonunchilikda belgilangan yoshni 15 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga gipofizar mittilik kasaliga chalinganlar (liliputlar) va gavda tuzilishida

---

<sup>24</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2011 yil 8 sentyabrda qabul qilingan 252-son Qarori asosida

mutanosiblik bo‘zilgan pakanalar – erkaklar ish staji kamida 20 yil bo‘lganda, ayollar ish staji kamida 15 yil bo‘lganda ega bo‘ladilar.

To‘liq pensiya tayinlash uchun etarlicha ish stajiga ega bo‘lmagan shaxslarga yoshga doir pensiyalar bor stajga mutanosib ravishdagi miqdorda tayinlanadi. Ish staji to‘liq bo‘lmagan chog‘dagi pensiyalar bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

Ish staji to‘liq bo‘lmagan chog‘dagi pensiyalar yoshga doir pensiyalar uchun eng kam oylik ish haqining 50 foizidan kam bo‘lmasligi lozim.

“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq ish haqining yakka tartibdagi koeffitsientlarini qo‘llagan holda pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan haqiqiy ish haqini qayta hisoblab chiqish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8sentyabrdagi 252-sonli “Pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan amaldagi ish haqini ish haqining yakka tartibdagi koeffitsientlarini qo‘llagan holda qayta hisoblab chiqish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq tartibda belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan ish haqi, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar miqdorlari oshirilgan taqdirda ilgari tayinlangan barcha pensiyalar miqdorlari ushbu Farmonda nazarda tutilgan shartlarga muvofiq oshiriladi.

*Yoshga doir pensiya tayinlash uchun murojaat qilgan shaxsning arizasiga quyidagilar ilova qilinishi kerak<sup>25</sup>:*

- ish stajini, shu jumladan maxsus ish stajini tasdiqlaydigan hujjat;
- ish haqi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma;
- ariza beruvchining jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi nusxasi (2005 yil 1 yanvardan keyin).

*Bundan tashqari, zarur hollarda quyidagilar taqdim etiladi:*

---

<sup>25</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2011 yil 8 sentyabrda qabul qilingan 252-son Qarori asosida

- tegishli organ tomonidan berilgan harbiy xizmatni, partizan otryadlari va qo‘shimlarda bo‘lganlikni, davlat xavfsizligi organlarida va ichki ishlar organlarida xizmat qilganlikni tasdiqlaydigan ma’lumotnoma;

- tegishli organ tomonidan berilgan, idoraviy bo‘ysunuvidan qat’i nazar, harbiylashtirilgan soqchilikdagi, maxsus aloqa organlari va kon-qutqaruv qismlaridagi xizmatni tasdiqlaydigan ma’lumotnoma;

- band bo‘lgan shaxsga O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq organlari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar asosida Pensiya jamg‘armasi bo‘limi tomonidan berilgan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘langanligini tasdiqlaydigan ma’lumotnoma;

- O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining davolash-profilaktika muassasasi tibbiy-maslahat komissiyasi (keyingi o‘rinlarda TMK deb yuritiladi) tomonidan berilgan ariza beruvchining bolasi 16 yoshgacha nogiron bola deb e’tirof etilishini tasdiqlaydigan tibbiyot xulosasi yoki Tibbiy-mehnat ekspert komissiyasi (keyingi o‘rinlarda TMEK deb yuritiladi) tomonidan berilgan parvarish ostidagi shaxs I guruh nogironi deb tan olinishini tasdiqlaydigan nogironlik to‘g‘risidagi ma’lumotnomaning tegishli qismi;

- davolash-profilaktika muassasasining xulosasi asosida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi tomonidan berilgan o‘zgalarning parvarishiga muhtoj bo‘lgan 80 yoshga to‘lgan keksalarga qarab turilgan vaqtni tasdiqlaydigan ma’lumotnoma;

- oliy ta’lim muassasalarida (shu jumladan o‘qish harbiy xizmatga tenglashtiriladigan harbiy ta’lim muassasalarida, shuningdek partiya maktablarida), aspiranturada (stajyorlar-tadqiqotchilar-izlanuvchilar institutida), doktoranturada (katta ilmiy xodimlar — izlanuvchilar institutida) va klinik ordinaturada kunduzgi o‘qishni, shu jumladan chet elda o‘qishni tasdiqlaydigan diplom yoki ma’lumotnoma;

- bolani parvarish qilish bo‘yicha ta’til berilganligi va ta’tildan qaytilganligi to‘g‘risidagi buyruqlarning nusxalari ilova qilingan holda ayol kishi bola

tugʻilgandan boshlab u uch yoshga toʻlgungacha boʻlgan davrda mehnat munosabatlarida boʻlgan tashkilot (tashkilotlar) tomonidan berilgan bola uch yoshga toʻlgunga qadar uni parvarish qilish vaqtini tasdiqlaydigan maʼlumotnoma;

- ofitserlar tarkibidan boʻlgan shaxslar, praporshchiklar, michmanlar va muddatdan tashqari xizmat qiluvchi harbiy xizmatchilarning xotinlari, ularni ishga joylashtirish imkoniyati boʻlmagan joylarda erlari bilan yashagan vaqtni tasdiqlaydigan maʼlumotnoma;

- Oʻzbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan berilgan Oʻzbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalari xodimlarining, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslarning xotini (eri) chet elda boʻlgan vaqtini tasdiqlaydigan maʼlumotnoma;

- ariza beruvchi urush qatnashchisi yoki unga tenglashtirilgan shaxs hisoblanishini tasdiqlaydigan hujjat;

- davolash-profilaktika muassasasining ariza beruvchi gipofizar nanizm bemori (liliput) yoxud disproportsional pakana ekanligi toʻgʻrisidagi maʼlumotnomasi;

- familiya, ism, ota ismi oʻzgartirilganligi toʻgʻrisidagi hujjat;

- TMEKning nogironlik toʻgʻrisidagi maʼlumotnomasining tegishli qismi — mehnatda yoki kasb kasalligiga chalinganlik oqibatida I va II guruhlar nogironi boʻlgan vaqt stajga hisoblanadigan hollarda;

- fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organi tomonidan berilgan nogiron bola 8 yoshga toʻlgunga qadar uni parvarish qilish vaqtini tasdiqlaydigan maʼlumotnoma, shuningdek bola 8 yoshgacha nogiron bola deb eʼtirof etilishini tasdiqlaydigan TMK tomonidan berilgan tibbiyot xulosasi, yoki TMK tomonidan berilgan nogironlikni belgilash uchun asos hisoblanadigan kasallik boʻyicha davolash-profilaktika muassasasida hisobda turganlik toʻgʻrisidagi maʼlumotnoma;

- oqlov hukmi yoki ish toʻxtatilganligi toʻgʻrisida sudning ajrimi (qarori) yoki prokuror (tergovchi)ning ish toʻxtatilganligi toʻgʻrisidagi qarori, shuningdek oldini

olish chorasi sifatida shaxsni tergov izolyatoriyada (turmada) qamoqda saqlash, qamoq yoki ozodlikdan mahrum etish shaklida jazoni o'tash davri to'g'risida tergov organlari yoki ichki ishlar organlarining ma'lumotnomasi, shuningdek reabilitatsiya to'g'risidagi hujjatlar (sud organlari, prokuratura organlari, surishtiruv va tergov organlarining oqlov hukmi chiqarilganligi to'g'risidagi ma'lumotnomasi yoki reabilitatsiya qiluvchi asoslar bo'yicha jinoyat ishi to'xtatilganligi to'g'risidagi qarori (ajrimi);

- O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tuman (shahar) Bandlik va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazining shaxsni ishsiz deb e'tirof etish to'g'risidagi taqdimnomasi.

Xodimlarga va ularning oila a'zolariga pensiya (barcha turdagi) tayinlash to'g'risida ariza oxirgi ish joyidagi korxonalar, muassasa, tashkilot ma'muriyati orqali beriladi. Pensiyalarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limlari tayinlaydi.

Davlat Pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonunning 45- moddasiga ko'ra pensiya (barcha turlari) tayinlash to'g'risidagi xujjatlar tushgan kundan e'tiboran 10 kundan kechiktirmasdan qarab chiqiladi.

Shuningdek, taqdimnoma yoki ariza barcha zarur hujjatlar bilan qabul qilingan kun pensiya uchun murajaat etilgan kun hisoblanadi.

Ishlaydigan hamda ishlamaydigan yoshga doir pensiyalarga pensiyalarni to'lash "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 157-159-bandlari bilan tartibga solinib, unga ko'ra ishlamaydigan pensionerlarga pensiyalarni ular istiqomat qilib turgan joydagi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bo'limlari to'laydi. Ishlab turgan pensionerlarga pensiyalar(barcha turlari) ular ishlab turgan joyida, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'lanadi.

Tahlil ob'ektimiz bo'lmish Navoiy viloyati Karmana tumanida bugungi kunda 12385 ta pensiya va nafaqa oluvchilar mavjud bo'lib, shundan 9890 nafari yoshga doir pensiya oluvchi shahslarni tashkil etmoqda (2.2-rasm).



## 2.2-rasm. Navoiy viloyati Karmana tumanida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar oluvchi pensionerlar soni (pensiya turlari bo'yicha)<sup>26</sup>

2.2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Karmana tumanida 2013 yilda jami 8854 nafar yoshga doir pensiya oluvchilar mavjud bo'lgan bo'lsa, 2014 yilda esa 9152 nafar, 2015 yilda 9615 nafar, 2016 yil may holatida 9890 nafarga etgan. Ko'rinib turibdiki yoshga doir pensiya oluvchilar soni yil sayin o'sib bormoqda.

Pensionerga hisoblab chiqarib qo'yilgan, lekin uning tomonidan o'z vaqtida talab qilib olinmagan pensiya (barcha turlari) puli pensiyani olish maqsadida murojaat etilganidan oldingi 12 oydan oshmagan davr uchun to'lanadi.

Pensiyani tayinlovchi yoki to'lovchi organning aybi bilan o'z vaqtida olinmay qolgan pensiya puli o'tgan davr uchun muddati cheklanmagan holda to'lanadi.

### 2.2. Nogironlik pensiyalarni tayinlash va to'lash amaliyoti

*Nogiron* shaxs bu jismoniy, aqliy, ruhiy yoki sensor (sezgi) nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan qonun hujjatlarida

<sup>26</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Karmana tumani bo'limi ma'lumotlari asosida

belgilangan tartibda nogiron deb topilgan hamda ijtimoiy yordamga va himoyaga muhtoj shaxsdir. Nogiron bolalar — jismoniy, aqliy, ruhiy yoki sensor (sezgi) nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nogiron deb topilgan hamda ijtimoiy yordamga va himoyaga muhtoj o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslardir<sup>27</sup>.

Nogironlarga tegishli asoslar mavjud bo‘lganida nogironlik pensiyalari, boshqa hollarda esa nogironlik nafaqalari tayinlanadi. O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonuni 15- moddasiga ko‘ra nogironlik pensiyalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda I va II- guruh nogironlari deb topilgan shaxslarga tayinlanadi. Sog‘lig‘ini yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik darajasiga qarab, nogironlikning uch guruhi aniqlanadi. Nogironlik sabablari va guruhlari, shuningdek nogironlik boshlangan vaqt va nogironlikning qancha muddatga belgilanishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ular to‘g‘risidagi Nizom asosida ishlovchi tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) tomonidan aniqlanadi.

*Nogironlik pensiyasini tayinlashni so‘rab murojaat qilgan shaxsning arizasiga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi kerak:*

- ish stajini, shu jumladan maxsus ish stajini tasdiqlaydigan hujjat;
- ish haqi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma;
- ariza beruvchining jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi nusxasi (2005 yil 1 yanvardan keyin);
- baxtsiz hodisa va sog‘liqning ishlab chiqarishda boshqa shikastlanishi to‘g‘risidagi hujjat yoki agar nogironlik mehnatda mayiblanish oqibatida sodir bo‘lgan bo‘lsa — boshqa rasmiy hujjat.

*Bundan tashqari, zarur hollarda quyidagilar taqdim etiladi:*

- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi tomonidan berilgan ariza beruvchi yashash joyi bo‘yicha bir o‘zi yashashi (ro‘yxatdan o‘tkazilganligi) to‘g‘risidagi ma’lumotnoma;

---

<sup>27</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2008 yil 11 iyul, O‘RQ-162-son “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunidan 3-modda

- tegishli organ tomonidan berilgan harbiy xizmatni, partizan otryadlari va qo‘shimlarda bo‘lganlikni, davlat xavfsizligi organlarida va ichki ishlar organlarida xizmat qilganlikni tasdiqlaydigan ma’lumotnoma;

- tegishli organ tomonidan berilgan, idoraviy bo‘ysunuvidan qat’i nazar, harbiylashtirilgan soqchilikdagi, maxsus aloqa organlari va kon-qutqaruv qismlaridagi xizmatni tasdiqlaydigan ma’lumotnoma;

- band bo‘lgan shaxsga O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq organlari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar asosida Pensiya jamg‘armasi bo‘limi tomonidan berilgan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘langanligini tasdiqlaydigan ma’lumotnoma;

- O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining davolash-profilaktika muassasasi tibbiy-maslahat komissiyasi (keyingi o‘rinlarda TMK deb yuritiladi) tomonidan berilgan ariza beruvchining bolasi 16 yoshgacha nogiron bola deb e’tirof etilishini tasdiqlaydigan tibbiyot xulosasi yoki Tibbiy-mehnat ekspert komissiyasi (keyingi o‘rinlarda TMEK deb yuritiladi) tomonidan berilgan parvarish ostidagi shaxs I guruh nogironi deb tan olinishini tasdiqlaydigan nogironlik to‘g‘risidagi ma’lumotnomaning tegishli qismi;

- davolash-profilaktika muassasasining xulosasi asosida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi tomonidan berilgan o‘zgalarning parvarishiga muhtoj bo‘lgan 80 yoshga to‘lgan keksalarga qarab turilgan vaqtni tasdiqlaydigan ma’lumotnoma;

- oliy ta’lim muassasalarida (shu jumladan o‘qish harbiy xizmatga tenglashtiriladigan harbiy ta’lim muassasalarida, shuningdek partiya maktablarida), aspiranturada (stajyorlar-tadqiqotchilar-izlanuvchilar institutida), doktoranturada (katta ilmiy xodimlar — izlanuvchilar institutida) va klinik ordinaturada kunduzgi o‘qishni, shu jumladan chet elda o‘qishni tasdiqlaydigan diplom yoki ma’lumotnoma;

- bolani parvarish qilish bo‘yicha ta’til berilganligi va ta’tildan qaytilganligi to‘g‘risidagi buyruqlarning nusxalari ilova qilingan holda ayol kishi bola

tugʻilgandan boshlab u uch yoshga toʻlgungacha boʻlgan davrda mehnat munosabatlarida boʻlgan tashkilot (tashkilotlar) tomonidan berilgan bola uch yoshga toʻlgunga qadar uni parvarish qilish vaqtini tasdiqlaydigan maʼlumotnoma;

- ofitserlar tarkibidan boʻlgan shaxslar, praporshchiklar, michmanlar va muddatdan tashqari xizmat qiluvchi harbiy xizmatchilarning xotinlari, ularni ishga joylashtirish imkoniyati boʻlmagan joylarda erlari bilan yashagan vaqtni tasdiqlaydigan maʼlumotnoma;

- Oʻzbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan berilgan Oʻzbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalari xodimlarining, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslarning xotini (eri) chet elda boʻlgan vaqtini tasdiqlaydigan maʼlumotnoma;

- ariza beruvchi urush qatnashchisi yoki unga tenglashtirilgan shaxs hisoblanishini tasdiqlaydigan hujjat;

- davolash-profilaktika muassasasining ariza beruvchi gipofizar nanizm bemori (liliput) yoxud disproportsional pakana ekanligi toʻgʻrisidagi maʼlumotnomasi;

- familiya, ism, ota ismi oʻzgartirilganligi toʻgʻrisidagi hujjat;

- TMEKning nogironlik toʻgʻrisidagi maʼlumotnomasining tegishli qismi — mehnatda yoki kasb kasalligiga chalinganlik oqibatida I va II guruhlar nogironi boʻlgan vaqt stajga hisoblanadigan hollarda;


- fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organi tomonidan berilgan nogiron bola 8 yoshga toʻlgunga qadar uni parvarish qilish vaqtini tasdiqlaydigan maʼlumotnoma, shuningdek bola 8 yoshgacha nogiron bola deb eʼtirof etilishini tasdiqlaydigan TMK tomonidan berilgan tibbiyot xulosasi, yoki TMK tomonidan berilgan nogironlikni belgilash uchun asos hisoblanadigan kasallik boʻyicha davolash-profilaktika muassasasida hisobda turganlik toʻgʻrisidagi maʼlumotnoma;

**2. 3-jadval**

**2016 yil 1 may holatida Navoiy viloyati Karmana tumanida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan nogironlik pensiyasini oluvchilar to'g'risida ma'lumot<sup>28</sup>**

Pensiya va ijtimoiy nafaqa turi hamda toifalari	2016 yil yanvar holatiga jami pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni	Hisobot davrida hisobga olingan pensiya va ijtimoiy nafaqa ishlari soni						Qo'shimcha hujjatga asosan qayta hisoblandi	Hisobot davrida hisobdan chiqarilgan pensiya va ijtimoiy nafaqa ishlari soni					2016 yil may holatiga jami pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni
		Umumiy soni	shu jumladan:						Umumiy soni	shu jumladan:				
			yangi tayinlandi	yangidan ishlovchi	boshqa hududdan ko'chib keldi	nogiron guruhi va BYP tiklandi	boshqa tur pensiyadan o'tdi			Vafot etdi	boshqa hududga ko'chib ketdi	nogiron va BYP muddati tugadi	boshqa tur pensiyaga o'tdi	
Jami pensiya oluvchilar soni	11950	790	435	73	37	314	4	6	355	146	1	208	0	12385
<b>I bo'lim. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pesiya tam'minoti to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq</b>														
Nogironlik pensiyalar soni - jami	1802	197	39	2	4	154	0	0	162	26	0	136	0	1837
Shundan: 1-gurux ko'z kasalligi	95	5	0	0	0	5	0	0	2	2	0	0	0	98
1-guruh boshqa umumiy kasallik	195	13	3	0	0	10	0	0	11	8	0	3	0	197
2-guruh	1384	181	36	2	2	143	0	0	149	17	0	132	0	1416
3-guruh	223	3	0	0	2	1	0	0	2	1	0	1	0	224
<b>II bo'lim. "Harbiy xizmatchilar pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonun bo'yicha</b>														
Nogironlar soni jami -	43	14	0	0	1	13	0	0	2	0	0	2	0	55
1-guruh	7	5	0	0	0	5	0	0	0	0	0	0	0	12
2-guruh	28	7	0	0	1	6	0	0	2	0	0	2	0	33
3-guruh	8	2	0	0	0	2	0	0	0	0	0	0	0	10

<sup>28</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Karmana tumani bo'limi ma'lumotlari asosida



### 2.3-rasm. Nogironlikning kelib chiqish sabablariga ko'ra guruhlanishi<sup>29</sup>

- oqlov hukmi yoki ish to'xtatilganligi to'g'risida sudning ajrimi (qarori) yoki prokuror (tergovchi)ning ish to'xtatilganligi to'g'risidagi qarori, shuningdek oldini olish chorasi sifatida shaxsni tergov izolyatoriyada (turmada) qamoqda saqlash, qamoq yoki ozodlikdan mahrum etish shaklida jazoni o'tash davri to'g'risida tergov organlari yoki ichki ishlar organlarining ma'lumotnomasi, shuningdek reabilitatsiya to'g'risidagi hujjatlar (sud organlari, prokuratura organlari, surishtiruv va tergov organlarining oqlov hukmi chiqarilganligi to'g'risidagi ma'lumotnomasi yoki reabilitatsiya qiluvchi asoslar bo'yicha jinoyat ishi to'xtatilganligi to'g'risidagi qarori.

2.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, bugungi kunda Karmana tumani byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan nogironlik pensiyalarini oluvchi fuqarolar jami 1892 nafarni tashkil etib, shundan 1-guruh nogironligi bo'yicha pensiyalar oluvchilar 209 nafarni, 2-guruh bo'yicha 1449 nafarni tashkil etmoqda.

Umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyalari nogironlik boshlangan paytga qadar quyidagicha ish stajiga ega bo'lgan taqdirda tayinlanadi (2.4-jadvalga qaralsin). 20 yoshga to'lgunga qadar umumiy kasallik tufayli ish davrida yoki ishlash to'xtatilganidan keyin nogiron bo'lib qolgan shaxslarga pensiyalar ish stajidan qat'i nazar tayinlanadi. Mehnatda mayiblanganda yoki kasb

<sup>29</sup> Mavjud me'yoriy-huquqiy baza asosida muallif tomonidan tayyorlandi

kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyasidan umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyasiga o'tkazilganda zarur staj nogironlik dastlab belgilangan vaqtdagi yoshga qarab aniqlanadi.

#### 2.4-jadval

##### Nogironlik pensiyasini olish huquqini beruvchi ish staji<sup>30</sup>

Yosh	Ish staji
23 yoshga qadar	2
23 yoshdan 26 yoshga qadar	3
26 yoshdan 31 yoshga qadar	5
31 yoshdan 36 yoshga qadar	7
36 yoshdan 41 yoshga qadar	9
41 yoshdan 46 yoshga qadar	11
46 yoshdan 51 yoshga qadar	14
51 yoshdan 56 yoshga qadar	17
56 yosh va undan oshganda	20

Pensiya tayinlash uchun etarlicha ish stajiga ega bo'lmagan (umumiy kasallik oqibatidagi I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

I yoki II guruh nogironi bo'lib qolgan shaxsning, shuningdek vafot etgan, nogironlik boshlangan yoki vafot etgan vaqtida bir oydan kam ish stajiga ega bo'lgan boquvchining ish haqi ishlangan kunlar uchun ish haqi summasini ishlangan kunlar soniga bo'lish va olingan natijani ushbu oying ish kunlari soniga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

Pensiyani hisoblab chiqish uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqi ketma-ket ishlangan oltmish kalendar oydagi ish haqining yakka tartibdagi koeffitsientini qo'llagan holda qayta hisoblab chiqilgan umumiy miqdorini oltmishga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Agar nogironlik pensiyasini tayinlashda

<sup>30</sup> O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarni pensiya ta'minoti to'g'risida" gi Qonuning 17 moddasiga asosan. 1993 yil 3 sentyabr (keyingi yillardagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda).

pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan ish staji besh yildan kam bo'lsa pensiyani hisoblash uchun o'rtacha oylik ish haqi kalendar ish oylari uchun qayta hisoblangan ish haqi umumiy summasini ushbu oylar soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Ish haqining yakka tartibdagi koeffitsientini qo'llagan holda pensiyalarni hisoblab chiqish uchun ish haqini qayta hisoblab chiqish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Pensiyani hisoblash uchun qonun hujjatlarida pensiya tayinlanadigan sanaga belgilangan eng kam oylik ish haqining sakkiz baravari miqdoridan ortiq bo'lmagan summadagi o'rtacha oylik ish haqi qabul qilinadi. Pensiya tayinlash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqi eng kam oylik ish haqi miqdoridan kam bo'lgan yoki ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar to'liq mavjud bo'lmagan hollarda pensiya miqdori qonun hujjatlarida pensiya tayinlashni so'rab murojaat qilingan kunda belgilangan eng kam oylik ish haqidan kelib chiqib mintaqaviy koeffitsient hisobga olinmasdan hisoblab chiqiladi.

*Pensiya miqdori ish staji davriga bog'liq bo'ladi va:*

- pensiyaning bazaviy miqdoridan;
- ish staji uchun pensiya oshirilishidan;
- pensiyaga ustama haqlardan shakllanadi.

*Pensiyani hisoblash uchun bazaviy miqdorlari belgilanadi*<sup>31</sup>: I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi uchun — pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi, biroq yoshga doir eng kam pensiyaning 100 foizidan kam emas (eng kam mish haqi – 130240 so'm, yoshga doir pensiyalar — oyiga 254730 so'm, bolalikdan nogironlarga beriladigan nafaqa — oyiga 254730 so'm, zarur ish stajiga ega bo'lmagan keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nafaqa oyiga 156310 so'm miqdorida<sup>32</sup>).

---

<sup>31</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 2011 yil 8 sentyabrda qabul qilingan 252-son Qarori asosida

<sup>32</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 26 avgust, PF-4751-son "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi Farmoni asosida

*Pensiya tayinlash uchun talab qilinadigandan ortiq ish stajining har bir to'liq yili uchun pensiyalarning bazaviy miqdorlari:* I va II guruhlar nogironlariga nogironlik pensiyalari — pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqining 1 foiziga teng. Mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga chalinish oqibatida I va II guruhlar nogironlariga nogironlik pensiyasining bazaviy miqdori nogironlik bo'yicha pensiya tayinlangan kunda nazarda tutilgan ish staji mavjud bo'lganda oshiriladi.

*Pensiyaga ustama haqlar quyidagi miqdorlarda belgilanadi*<sup>33</sup>:

- I guruh urush nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 150 foizi;
- II guruh urush nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 125 foizi;
- ko'rish bo'yicha I guruh nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 100 foizi;
- I guruh nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 75 foizi;
- II guruh yolg'iz nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 50 foizi;
- urush qatnashchilariga va ularga tenglashtirilgan shaxslarga — eng kam oylik ish haqining 50 foizi;
- 1941 — 1945 yillardagi urush davrida front orqasida ishlagan va harbiy majburiyatlarni bajargan shaxslarga — eng kam oylik ish haqining 30 foizi.

Boshqa davlatdan kelgan shaxsning, shu jumladan ilgari O'zbekiston Respublikasidan ketgan shaxsning pensiya hujjatlari yig'majildini hisobga qabul qilib olishda, uning boshqa davlatda pensiya olganligidan qat'i nazar, pensiya miqdori hisobga qabul qilish to'g'risida murojaat qilingan vaqtda amalda bo'lgan qonun hujjatlari talablariga muvofiq hisoblanadi.

Pensiya Pensiya jamg'armasi bo'limiga murojaat qilingan kundan boshlab hisoblab chiqiladi va to'lanadi. Pensiya tayinlash masalalarini ko'rib chiqish uchun pensiya jamg'armasi bo'limida pensiya tayinlash bo'yicha komissiya (keyingi o'rinlarda komissiya deb ataladi) tuziladi. Komissiya faoliyatini tashkil etish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi. Komissiya boshqa zarur hujjatlar bilan birgalikda pensiya tayinlash to'g'risidagi ariza tushgandan keyin o'n kun muddatda tegishli

---

<sup>33</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 2011 yil 8 sentyabrda qabul qilingan 252-son Qarori asosida

qaror qabul qiladi (pensiya tayinlash to'g'risida, pensiya tayinlashni rad etish haqida, taqdim etilgan hujjatlarning asoslanganligini tekshirish to'g'risida va shu kabilar). Agar ariza beruvchi pensiya olish huquqiga ega bo'lgani holda pensiya tayinlash uchun murojaat qilishda nazarda tutilgan zarur hujjatlarni taqdim etmasa yoki taqdim etilgan hujjatlar ularning asoslanganligi va ishonchliligi yuzasidan qo'shimcha tekshirishni talab qilsa, komissiya tomonidan ariza beruvchining yozma roziligiga ko'ra shubha tug'dirmaydigan mavjud hujjatlar bo'yicha pensiya tayinlanishi mumkin. Agar ariza beruvchi shubha tug'dirmaydigan mavjud hujjatlar bo'yicha pensiya tayinlashga rozi bo'lmasa, komissiya ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni tekshirish tamom bo'lgandan keyin pensiya tayinlash to'g'risida qaror qabul qiladi. Pensiya ishi komissiya tomonidan pensiya tayinlash to'g'risida qaror qabul qilingan kun mobaynida rasmiylashtirilishi kerak. Pensiya ishlarini rasmiylashtirish va yuritish tartibi, shuningdek pensiya hujjatlari shakllari va ularni to'ldirish qoidalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Pensiya tayinlash rad etilgan taqdirda Pensiya jamg'armasi bo'limi tegishli qaror chiqarilgandan keyin besh kundan kechikmay tashkilot yoki ariza beruvchiga rad etish sabablarini, qabul qilingan qaror yuzasidan shikoyat qilish tartibi ko'rsatilgan bildirishnomani berishi yoki yuborishi hamda barcha taqdim etilgan hujjatlarning asl nusxalarini hujjatlar olinganligi to'g'risidagi tilxat bilan pensionerning (ota-onaning, qonuniy vakilning) qo'liga qaytarishi shart. Komissiyaning qarori yuzasidan ariza beruvchi tomonidan Pensiya jamg'armasi bo'limining bevosita yuqori organiga yoki sudga shikoyat qilish mumkin.

*To'liq bo'lmagan ish staji sharoitida pensiya nogironlik pensiyasi*<sup>34</sup> — pensiya tayinlash uchun etarli ish stajiga ega bo'lmagan umumiy kasallik oqibatidagi I va II guruhlar nogironlariga (shu jumladan bolalikdan nogironlarga) tayinlanadi. Staj to'liq bo'lmagandagi pensiya miqdori Qonunda belgilangan miqdorlardan past bo'lishi mumkin emas. To'liq bo'lmagan ish staji holatida

---

<sup>34</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 2011 yil 8 sentyabrda qabul qilingan 252-son Qarori asosida

pensiya quyidagi tarzda mavjud stajga mutanosib ravishda hisoblab chiqiladi: dastlab tegishli to'liq pensiya aniqlanadi; ushbu pensiya talab etiladigan ish staji oylari soniga bo'linadi, olingan summa amaldagi ish staji oylari soniga ko'paytiriladi. To'liq bo'lmagan ish staji holatida nogironlik pensiyasi — agar nogironlik belgilangan kundan boshlab uch oy ichida pensiya so'rab murojaat etilgan bo'lsa, TMEK nogironlikni belgilagan kundan e'tiboran tayinlanadi. Ushbu pensiya butun nogironlik davri uchun tayinlanadi. 60 yoshdan oshgan erkak va 55 yoshdan oshgan ayol nogironlarga — nogironlik pensiyalari umrbod tayinlanadi. Ana shu nogironlarni qayta tibbiy ko'rikdan o'tkazish faqat ularning arizasiga binoan amalga oshiriladi va nazarda tutilgan muddatlarga muvofiq tayinlanadi. Pensionerga rasmiy hujjat hisoblanadigan pensiya guvohnomasi beriladi.

Nogironlikning III guruhi belgilangan shaxslarga, shu jumladan 2011 yil 1 yanvardan keyin takroriy tibbiy ko'rikdan o'tkazilgandan so'ng nogironlikning III guruhi belgilangan shaxslarga nogironlik pensiyasi to'lanmaydi. Qariyalar va nogironlarning internat uylarida (pansionatlarida) yashovchi yolg'iz pensionerlarga pensiya bilan ular ta'minoti uchun sarf-xarajat o'rtasidagi farq, biroq tayinlangan pensiyaning kamida 10 foizi va urush nogironlariga esa — kamida 20 foizi to'lanadi. Ruhiy bemorlar internat uylarida yashovchi pensionerlarga pensiya to'lanmaydi.

Pensioner ruhiy bemorlar uchun davolash muassasalarida bo'lgan vaqt uchun pensiya qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma bo'yicha to'lanadi. Pensioner tomonidan o'z vaqtida talab qilib olinmagan pensiyaning hisoblangan summasi o'tgan vaqt uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlariga muvofiq pensiyalar miqdorlari oshirilishi hisobga olingan holda bir yo'la to'lanadi, biroq pensiya olish uchun murojaat qilishdan oldingi o'n ikki oydan ortiq vaqt uchun emas. Pensiya jamg'armasi bo'limining aybi bilan o'z vaqtida olinmagan pensiya summasi o'tgan vaqt uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlariga muvofiq pensiyalar miqdorlari oshirilishi hisobga olingan holda, muddat cheklanmasdan bir yo'la to'lanadi.

Tayinlangan pensiyani to‘lash pensioner vafot etganda, tayinlangan pensiyaga huquqlar yo‘qolganda, doimiy yashash uchun O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga chiqib ketilganda to‘xtatiladi. Tayinlangan pensiyani to‘lash pensiya to‘lash muddati tamom bo‘lganda, ketma-ket uch oydan ortiq vaqt mobaynida pochta aloqasi tashkiloti orqali pensiya olinmaganda, pensioner ozodlikdan mahrum etilganda, pensioner ruhiy bemorlar internat uylarida yashaganda, pensiyani to‘lashni to‘xtatib turish to‘g‘risida pensioner tomonidan ariza berilganda to‘xtatib turiladi. Tayinlangan pensiyani to‘lash qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda ham to‘xtatib turilishi mumkin. Pensiyani to‘lash pensioner yoki uning vasiysi Pensiya jamg‘armasi bo‘limiga kelgandan so‘ng va u ariza taqdim etgandan, shuningdek shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko‘rsatgandan so‘ng tiklanadi.

Jabrlanganda kasbiy mehnat layoqati yo‘qotilishi darajasi TMEK tomonidan<sup>35</sup>:

- mehnatda mayib bo‘lganda – Nogironlikning sabablari ro‘yxati asosida belgilanadi, bunda nogironlik mehnatda mayib bo‘lganlik oqibatida yuzaga kelgan deb hisoblanadi;

- kasb kasalligida –kasb kasalliklari ro‘yxati asosida belgilanadi. Bunda qonun hujjatlariga muvofiq maxsus vakolatli sog‘liqni saqlash muassasasining xulosasidan ko‘chirma ham taqdim etiladi.

Mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga chalinish oqibatida nogironlik pensiyasi quyidagi hujjatlar asosida qayta hisoblab chiqiladi:

- pensiyani o‘tkazish to‘g‘risidagi ariza;
- shaxsning O‘zbekiston Respublikasi tashqarisida doimiy yashash joyini tasdiqlaydigan hujjat;
- O‘zbekiston Respublikasidan doimiy yashash joyiga ketish (bir davlatdan boshqa davlatga ko‘chib o‘tish) sanasi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma.

---

<sup>35</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2011 yil 8 sentyabrda qabul qilingan 252-son Qarori asosida

Shaxsning O‘zbekiston Respublikasi tashqarisidagi doimiy yashash joyini tasdiqlaydigan hujjat O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasi yoxud xorijiy davlatning vakolatli organi (mansabdor shaxsi) tomonidan beriladi. Bunda xorijiy davlatning vakolatli organi (mansabdor shaxsi) tomonidan berilgan hujjat pensionerning doimiy yashash joyidagi davlatda O‘zbekiston Respublikasining konsullik muassasasi tomonidan belgilangan tartibda legalizatsiya qilinishi kerak, bunday muassasa bo‘lmagan taqdirda esa, pensionerning doimiy yashash joyi davlatining Tashqi ishlar vazirligi, ushbu mamlakatning O‘zbekiston Respublikasidagi konsullik muassasasi yoki diplomatik vakolatxonasi tomonidan legalizatsiya qilinishi, keyinchalik, agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Konsullik boshqarmasida tasdiqlanishi kerak.

Mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga chalinish oqibatida nogironlik pensiyasini O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga o‘tkazish fuqaroning har bir yilning 31 dekabrda tirik ekanligini tasdiqlaydigan hujjat O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi ijro etuvchi apparatiga taqdim etilishi sharti bilan amalga oshiriladi. Mehnatga layoqatsiz fuqarolarga (18 yoshga to‘lmagan bolalarga, aka-ukalarga, opa-singillarga va nabiralarga) va sud tomonidan belgilangan tartibda huquqiy layoqatsiz deb e’tirof etilgan — ularning qonuniy vakillari pensiya oluvchilar hisoblanadigan fuqarolarga tayinlangan mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga chalinish oqibatida nogironlik pensiyalarini to‘lash uchun fuqaroning tirik ekanligini tasdiqlaydigan hujjat pensiya oluvchi uchun va pensiya tayinlangan fuqaro uchun taqdim etiladi. Bunday hujjat O‘zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasi, xorijiy davlatning notariusi yoxud vakolatli organi (mansabdor shaxsi) tomonidan beriladi.

Ko‘rsatib o‘tilgan hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga chalinish oqibatida nogironlik pensiyasini to‘lash O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to‘xtatib turiladi

(to'xtatiladi). Ko'rsatib o'tilgan hujjatlar taqdim etilgandan keyin mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga chalinish oqibatida nogironlik pensiyasini to'lash O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tiklanadi (qayta tiklanadi). Pensiya jamg'armasi bo'limi pensiya oluvchi doimiy yashash uchun O'zbekiston Respublikasi tashqarisiga ketgandan keyin uning pensiya hujjatlar yig'majildini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijro etuvchi apparatiga beradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijro etuvchi apparati mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga chalinish oqibatida nogironlik pensiyasini shaxsga u doimiy yashaydigan xorijiy davlatning bankidagi yoki boshqa moliya-kredit muassasasidagi hisob raqamiga o'tkazishni xorijiy valyutada amalga oshiradi, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ijro etuvchi apparatining xorijiy valyutadagi xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga chalinish oqibatidagi nogironlik pensiyasini o'tkazish chet elga jo'nab ketishdan oldin pensiya to'langan oydan keyingi oydan boshlab amalga oshiriladi<sup>36</sup>. Chet elga o'tkaziladigan mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga chalinish oqibatidagi nogironlik pensiyasi summasi, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida o'zgacha hol belgilanmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining pensiya haqidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qayta hisoblab chiqiladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya ijro etuvchi apparati O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki orqali chet elga o'tkazilishi kerak bo'lgan mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga

---

<sup>36</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 2011 yil 8 sentyabrda qabul qilingan 252-son Qarori asosida

chalinish oqibatida tayinlangan pensiyalar summasining o'z vaqtida konvertatsiya qilinishi va jo'natilishini ta'minlaydi.

### **2.3. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarini tayinlash va to'lash amaliyoti**

Fuqarolarning boquvchisini yo'qotganlik pensiya olish huquqiga ega bo'lgan oila a'zolari vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladi. Bunda farzandlar va oila a'zolari, agar ular marhumning to'liq boquvida bo'lgan yoki undan yordam olib turgan bo'lsalar, bu yordam ular uchun doimiy va asosiy kun kechirish mablag'ining manbai hisoblangan bo'lsa, marhumning qaramog'ida turgan deb hisoblanadilar.

Marhumning biron turdagi pensiya olayotgan oila a'zolari, agar marhumning yordami ular uchun doimiy va asosiy kun kechirish mablag'ining manbai hisoblangan bo'lsa boquvchisini yo'qotganlik pensiyasiga o'tish huquqiga egalari va boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi ular boquvchining qaramog'ida turgan turmaganidan qat'i nazar tayinlanadi.

Marhumning qaramog'ida turmagan ota-onasi va eri (xotini) ham, keyinchalik kun kechirish uchun zarur mablag' manбайдan mahrum bo'lib qolsalar, pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar.

Quyidagilar oilaning mehnatga qobiliyatsiz a'zolari hisoblanadilar<sup>37</sup>:

- bolalar, aka-ukalar, opa-singillar va nabiralar 16 yoshga to'lmagan bo'lsa yoki 16 yoshdan katta bo'lsa ham 16 yoshga to'lmasdan nogiron bo'lib qolgan bo'lsalar. Bunda aka-ukalar, opa-singillar va nabiralarning mehnatga qobiliyatli ota-onasi bo'lmasa;

- ota, ona, o'gay ota, o'gay ona, xotin, er, basharti, ular 7-moddada nazarda tutilgan pensiya yoshiga to'lgan yoki nogiron bo'lsalar;

---

<sup>37</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 2011 yil 8 sentyabrda qabul qilingan 252-son Qarori asosida

-yoshidan va mehnat qobiliyatidan qat'i nazar, ota va onadan biri yoki er(xotin) yoxud buva, buvi, aka-uka yoki opa-singil, agar u vafot etgan boquvchining bolalari, aka-ukalari, opa-singillari yoki nabiralarini, ishlovchilarga bolaga qarash uchun ish haqi saqlanmagan ta'tilda bo'lish huquqini beradigan yoshga to'lgunga qadar boqish bilan mashg'ul bo'lsa va ishlamasa;

- buva va buvi agar qonunga muvofiq ularni boqishi shart bo'lgan kishilar bo'lmasa.

O'quvchilar 18 yoshga to'lgunga qadar boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga egadirlar. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'lgan voyaga etmagan farzandlar, ular farzandlikka olinganlarida ham bu huquqni saqlab qoladilar. O'gay o'g'il va o'gay qiz, agar ular ota-onalaridan aliment olmagan bo'lsalar, haqiqiy farzandlar singari pensiya olish huquqiga egadirlar. O'gay ota va o'gay ona, agar vafot etgan o'gay o'g'ilni (qizni) 18 yoshga to'lgunga qadar kamida 5 yil tarbiyalagan yoki boqqan bo'lsalar, haqiqiy ota va ona singari pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar. Mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik oqibatida vafot etgan boquvchining oilasiga, shuningdek marhum pensionerning oilasiga pensiya boquvchining ish stajidan qat'i nazar tayinlanadi. Basharti, boquvchi vafot etgan kunga qadar unga nogironlik pensiyasi tayinlanishi uchun zarur ish stajiga ega bo'lgan bo'lsa, umumiy kasallik yoki ish bilan bog'liq bo'lmagan mayiblanish oqibatida vafot etgan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlanadi.

*Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini tayinlashni so'rab murojaat qilgan shaxsning arizasiga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi kerak<sup>38</sup>:*

- pensiya tayinlanayotgan shaxsning yoshini tasdiqlovchi tug'ilganlik haqidagi guvohnoma yoki pasport;

- oila a'zosining vafot etgan boquvchi bilan qarindoshlik munosabatlarini tasdiqlovchi hujjatlar (nikoh to'g'risidagi guvohnoma, nikoh bekor qilinganligi to'g'risidagi guvohnoma, u bo'lmagan taqdirda — fuqarolik holati

---

<sup>38</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 2011 yil 8 sentyabrda qabul qilingan 252-son Qarori asosida

dalolatnomalaridagi yozuvdan ko‘chirma, vakolatli tashkilotlarning yoki xorijiy davlatlar mansabdor shaxslarining ma’lumotnomasi);

- boquvchining vafot etganligi to‘g‘risidagi guvohnoma yoki uning bedarak yo‘qolganligi to‘g‘risida sudning qarori;

- vafot etgan boquvchining ish stajini, shu jumladan maxsus ish stajini tasdiqlaydigan hujjat;

- vafot etgan boquvchining jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi nusxasi (2005 yil 1 yanvardan keyin);

- vafot etgan boquvchining ish haqi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma.

*Bundan tashqari, zarur hollarda quyidagilar taqdim etiladi<sup>39</sup>:*

- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining vafot etgan boquvchining qaramog‘idagi oila a‘zolari tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi;

- ta‘lim muassasasining vafot etgan boquvchining oila a‘zolari 16 — 18 yoshdagi o‘quvchilar hisoblanishi to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi;

- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining vafot etgan boquvchining ota-onalari, turmush o‘rtog‘i, buvasi, buvisi, akasi (ukasi) yoki opasi (singlisi) vafot etgan boquvchining bolalari, aka-ukalari, opa-singillari yoki nabiralariga, ishlovchilarga bolaga qarash uchun ish haqi saqlanmagan ta‘tilda bo‘lish huquqini beradigan yoshga to‘lgunga qadar boqish bilan bandligini va ishlamayotganligini tasdiqlovchi ma’lumotnomasi;

- baxtsiz hodisa va sog‘liqning ishlab chiqarishda boshqa shikastlanishi to‘g‘risidagi hujjat yoki agar boquvchining vafoti mehnatda mayiblanish oqibatida sodir bo‘lgan bo‘lsa — boshqa rasmiy hujjat;

- shuningdek qonunchilikda belgilangan vafot etgan boquvchining nomiga rasmiylashtirilgan (yozilgan) hujjatlar.

Boquvchi-pensioner vafot etgan taqdirda ushbu bandeda ko‘rsatilgan zarur hujjatlar taqdim etilishi kerak, vafot etganning pensiyaga oid hujjatlar yig‘majildida mavjud bo‘lgan hujjatlar bundan mustasno.

---

<sup>39</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2011 yil 8 sentyabrda qabul qilingan 252-son Qarori asosida

Boshqa mamlakatlardan ko'chib kelgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining oilalariga, bosharti, boquvchi O'zbekiston Respublikasida ishlamagan bo'lsa, pensiyalar quyidagi hollarda tayinlanadi:

a) boshqa mamlakatlarda boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olgan oilalarga boquvchisining ish stajidan qat'i nazar;

b) pensiya olmagan oilalarga bosharti, boquvchi ishlash to'xtatilgan kunga qadar tegishli stajga ega bo'lgan bo'lsa, mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik oqibatida vafot etgan taqdirda esa boquvchining ish stajidan qat'i nazar.

Umumiy kasallik oqibatida vafot etgan hamda nogironlik pensiyasini to'liq tayinlash uchun etarlicha ish stajiga ega boquvchisini yo'qotgan oila a'zolariga pensiya boquvchining bor stajiga mutanosib ravishdagi miqdorda tayinlanadi.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasining tayanch miqdori:

- oilaning mehnatga layoqatsiz har bir a'zosiga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 50 foizi miqdorida;

- ota-onasidan judo bo'lgan (chin etim) bolalarga yoki vafot etgan yolg'iz onaning bolalariga, har bir bolaga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida belgilanadi. Bunda agar ota-onadan birining ish staji va ish haqidan kelib chiqqan holda hisoblangan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi miqdori har ikkala ota-onaning umumiy ish staji va ish haqidan kelib chiqqan holda hisoblangan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi miqdoridan ko'p bo'lsa, u holda, chin etim maqomini saqlab qolgan holda, murojaat etganning xohishi bo'yicha ota-onadan birining ish staji va ish haqidan kelib chiqqan holda hisoblangan pensiyaning eng ko'p miqdori tayinlanadi.

Navoiy viloyati Karmana tumanida 2016 yil 1 may holatida byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi hisobidan boquvchisini yuqotganlik pensiyasini oluvchilar jami 603 nafarni tashkil etib shundan 1 nafar oila a'zosi uchun pensiya

2.5-jadval

Navoiy viloyati Karmana tumanida 2016 yil 1 may holatida Boquvchisini yuqotganlik pensiyasini oluvchi fuqarolar soni va tarkibi<sup>40</sup>

Pensiya va ijtimoiy nafaqa turi hamda toifalari	2016 yil yanvar holatiga jami pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni	Hisobot davrida hisobga olingan pensiya va ijtimoiy nafaqa ishlari soni						Qo'shimcha hujjatga asosan qayta hisoblandi	Hisobot davrida hisobdan chiqarilgan pensiya va ijtimoiy nafaqa ishlari soni					2016 yil may holatiga jami pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni
		Umumiy soni	shu jumladan:						Umumiy soni	shu jumladan:				
			yangi tayinlandi	yangidan ishlovchi	boshqa hududdan ko'chib keldi	nogiron guruhi va BYP tiklandi	boshqa tur pensiyadan o'tdi			Vafot etdi	boshqa hududga ko'chib ketdi	nogiron va BYP muddati tugadi	boshqa tur pensiyaga o'tdi	
<b>Jami pensiya oluvchilar soni</b>	<b>11950</b>	<b>790</b>	<b>435</b>	<b>73</b>	<b>37</b>	<b>314</b>	<b>4</b>	<b>6</b>	<b>355</b>	<b>146</b>	<b>1</b>	<b>208</b>	<b>0</b>	<b>12385</b>
<b>I bo'lim. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pesiya tam'ini to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq</b>														
BYP oluvchilar soni - jami	600	59	18	X	6	32	3	0	59	5	0	54	0	600
Shundan: 1 nafar oila a'zosiga	432	44	10	X	4	27	3	0	46	5	0	41	0	430
2 nafar oila a'zosiga	131	13	7	X	1	5	0	0	7	0	0	7	0	137
3 nafar va undan ortiq oila a'zosiga	37	2	1	X	1	0	0	0	6	0	0	6	0	33
<b>II bo'lim. "Harbiy xizmatchilar pensiya ta'mini to'g'risida"gi Qonun bo'yicha</b>														
BYP oluvchilar soni - jami	3	0	0	X	0	0	0	0	0	0	0	0	0	3
Shundan: 1 nafar oila a'zosiga	3	0	0	X	0	0	0	0	0	0	0	0	0	3
2 nafar oila a'zosiga	0	0	0	X	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
3 nafar va undan ortiq oila a'zosiga	0	0	0	X	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0


<sup>40</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Karmana tumani bo'limi ma'lumotlari asosida

oluvchilar asisiy qismni tashkil etib, ular jami 433 nafarni tashkil etmoqda (2.5-jadval).

Boquvchining oila a'zolariga pensiyadan ulush ajratib berilishi oilaning pensiya olish huquqiga ega bo'lgan barcha a'zolariga bitta umumiy pensiya tayinlanadi. Oila a'zosining talabi bilan uning pensiyadagi ulushi ajratilib, alohida to'lanadi. Pensiyadan ulush ajratib berish pensiyani bo'lish to'g'risida ariza tushgan oydan keyingi oyning birinchi kunidan boshlab amalga oshiriladi. Pensiya tayinlash uchun talab qilinadigandan ortiq ish stajining har bir to'liq yili uchun pensiyalarning bazaviy miqdorlari boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari oilaning har bir mehnatga layoqatsiz a'zosiga — boquvchi o'rtacha oylik ish haqining 0,5 foiziga oshiriladi. Har ikkala ota-onasini yo'qotgan bolalarga (chin etimlarga) tayinlanadigan boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha pensiyalarini oshirish eng kam oylik ish haqining sakkiz baravari miqdori doirasida har ikkala ota-onaning ish haqi umumiy miqdoridan amalga oshiriladi.

Bunda har ikkala ota-onasini yo'qotgan bolalarga (chin etimlarga) tayinlanadigan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi miqdori har ikkala ota-onaning umumiy ish staji miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi, ya'ni pensiya tayinlash va talab etiladigandan ortiq staj uchun pensiyani oshirish har ikkala ota-onaning umumiy ish staji miqdori bo'yicha amalga oshiriladi. Agar ota-onadan birining ish staji va ish haqidan kelib chiqqan holda hisoblangan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi miqdori har ikkala ota-onaning umumiy ish staji va ish haqidan kelib chiqqan holda hisoblangan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi miqdoridan ko'p bo'lsa, u holda, chin etim maqomini saqlab qolgan holda, murojaat etganning xohishi bo'yicha ota-onadan birining ish staji va ish haqidan kelib chiqqan holda hisoblangan pensiyaning eng ko'p miqdori tayinlanadi. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqiga ega bo'lgan oila a'zolarining barchasiga bitta umumiy pensiya tayinlanadi. Oila a'zosining talabiga ko'ra uning pensiyadagi ulushi ajratiladi va unga alohida to'lanadi. Boshqa tumanda (shaharda) yashaydigan oila a'zosi o'ziga pensiya ulushini tayinlash yoki ajratish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilganda murojaat qilganning yashash

joyi bo'yicha Pensiya jamg'armasi bo'limi rasmiylashtiradigan yoki ushbu oilaning amaldagi pensiya hujjatlar yig'majildi turgan Pensiya jamg'armasi bo'limiga tegishli xabarnomani yuboradi. Xabarnomaga ariza va yangidan murojaat qilgan oila a'zosining pensiya olish huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar ilova qilinadi.



**2.4-rasm. Navoiy viloyati Karmana tumani byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi hisobidan to'lanuvchi pensiyalar va nafaqalar tizimi (2016 yil 1 may holatida)<sup>41</sup>**

Demak, Karmana tumanida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan to'lanadigan pensiya va nafaqalarning asosiy qismini, ya'ni 73% ni yoshga doir pensiyalar tashkil etsa, 5 % ni boquvchisini yuqotganlik pensiyasi, 14% ni nogironlik pensiyasini va 8 % ni ijtimoiy nafaqalarni tashkil etmoqda.

<sup>41</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Karmana tumani bo'limi ma'lumotlari asosida

## II Bob bo'yicha xulosa

II Bob bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Pensiya miqdori ish stajining muddatiga muvofiq bo'lib, quyidagilardan tashkil topadi:

- pensiyaning tayanch miqdori;
- ish staji uchun pensiyaning oshirilishi;
- pensiyaga qo'shiladigan ustama haq.

2. Karmana tumanida 2013 yilda jami 8854 nafar yoshga doir pensiya oluvchilar mavjud bo'lgan bo'lsa, 2014 yilda esa 9152 nafar, 2015 yilda 9615 nafar, 2016 yil may holatida 9890 nafarga etgan. Ko'rinib turibdiki yoshga doir pensiya oluvchilar soni yil sayin o'sib bormoqda;

3. Nogironlarga tegishli asoslar mavjud bo'lganida nogironlik pensiyalari, boshqa hollarda esa nogironlik nafaqalari tayinlanadi. O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni 15- moddasiga ko'ra nogironlik pensiyalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda I va II- guruh nogironlari deb topilgan shaxslarga tayinlanadi;

4. Karmana tumani byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan nogironlik pensiyalarini oluvchi fuqarolar jami 1892 nafarni tashkil etib, shundan 1-guruh nogironligi bo'yicha pensiyalar oluvchilar 209 nafarni, 2-guruh bo'yicha 1449 nafarni tashkil etmoqda;

5. Karmana tumanida 2016 yil 1 may holatida byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi hisobidan boquvchisini yuqotganlik pensiyasini oluvchilar jami 603 nafarni tashkil etib, shundan 1 nafar oila a'zosi uchun pensiya oluvchilar asosiy qismni tashkil etib, ular jami 433 nafarni tashkil etmoqda;

6. Karmana tumanida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan to'lanadigan pensiya va nafaqalarning asosiy qismini, ya'ni 73% ni yoshga doir pensiyalar tashkil etsa, 5 % ni boquvchisini yuqotganlik pensiyasi, 14% ni nogironlik pensiyasini va 8 % ni ijtimoiy nafaqalarni tashkil etmoqda.

### **III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA DAVLAT PENSIYALARINI AMAL QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

#### **3.1. Xorijiy mamlakatlarda pensiya ta‘minoti tizimi**

Pensiya ta‘minoti tuzilmaviy jihatlariga va uning xususiyatlariga xorijiy olimlar tomonidan turli ilmiy qarashlar mavjud. Ularda mazmunan ba‘zi farqlar kuzatilsada, mohiyatan uyg‘unlikni ko‘rish mumkin.

T.Emelyanova<sup>42</sup> pensiya ta‘minotining shakllanishini quyidagi turlarga ajratadi:

Birinchiidan, mehnatga layoqatsiz aholi qatlamini yashash minimumi va moddiy jihatdan ta‘minlash. Kambag‘allik oqibatlarini barataraf etish, mehnat qilish imkoniyatidan qat‘i nazar ijtimoiy tenglikni saqlab turish.

Ikkinchiidan, aholining daromadlariga muvofiq pensiya ta‘minotini amalga oshirilishida pensionerning shaxsiy mehnat ulushini hisobga olish.

Uchinchiidan, shaxsiy tashabbusga asoslangan pensiya ta‘minoti.

A.Ijaev<sup>43</sup> pensiya ta‘minoti tizimini klassifikatsiyalarga ajratishda quyidagi omillarga e‘tibor qaratish lozim, deya ta‘kidlaydi:

- pensiya to‘lovlari va badallarini hisoblash metodi asosida;
- pensiya fondining funktsional (taqsimlash va jamg‘armaviy) jihati asosida;
- son va shakl jihatidan, birinchiidan – ijtimoiy pensiya, ikkinchiidan, taqsimlash tizimi, uchinchiidan, jamg‘armaviy tizimi, to‘rtinchiidan, ixtiyoriy jamg‘arma tizimi.

Umuman olganda pensiya tizimini takomillashtirishda rivojlangan mamlakatlar tajribalarini tadqiq etish, ularning o‘ziga xos tajribalarini hisobga olgan holda sohani rivojlantirishning yangicha metodologik asoslarini yaratish zaruriyati

---

<sup>42</sup> Емельянова Т.В. Финансовое обеспечение пенсионных систем в странах ЕС и России//Финансы. – Москва, 2008. - №10. – С. 64.

<sup>43</sup> Ижаева А.Р. Концепция развития пенсионной системы Российской Федерации в посткризисный период: автореф. ... к.э.н. – Москва: ФГБОУ ВПО Гос. Унив. Управ., 2013. – 31 с.

tug'iladi. Qayd etish lozim, pensiya ta'minotining muhim xususiyatlaridan biri – majburiy va ixtiyoriy shakllarga ajratilishida. Pensiya ta'minotining majburiy shakllari taqsimot va jamg'armaviy uslubiyatlar orqali namoyon bo'lsa, ixtiyoriy pensiya ta'minoti shaxsiy yoki ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladigan tizimni o'zida ifoda etadi.

Pensiya ta'minoti tizimining bunday guruhlarga ajratishning asosiy sabablaridan biri – bu ijtimoiy himoyaning tashkil etish va uning funksiyalari bajarilishi yuzasidan vujudga kelgan. Boshqacha aytganda, Beverij va Bismark modellarining xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Tadqiqotlar asosida ta'kidlash mumkin, Evropa Ittifoqi mamlakatlarida shakllantirilgan pensiya ta'minoti tizimini ikki yirik modelga ajratish mumkin:

- pensiya ta'minotining (milliy) universal tizimi;
- sug'urta munosabatlari asosida shakllantirilgan sug'urtaviy pensiya tizimi.

Qayd etish lozimki, Evropa Ittifoqi mamlakatlarining ijtimoiy soha byudjetining 60 foiz mablag'lari sug'urta ajratmalari hisobidan shakllanadi. Bu esa o'z o'rnida, pensiya ta'minotini amalga oshirishda ijtimoiy sug'urta munosabatlarning shakllanganlik darajasini anglatadi. Sababi, xorijiy tajribada ijtimoiy soha faoliyatini tashkil etishda sug'urta munosabatlari etakchi o'rinni egallaydi. Qolaversa, pensiya ta'minotini ijtimoiy sohaning yirik bo'g'inlaridan biri ekanligi hamda uning rivojlanish bosqichlari borasida turli fikrlar mavjud. Evropa Ittifoqi mamlakatlarida sug'urtaviy pensiya ta'minoti tizimi quyidagi tamoyillar asosida shakllandi<sup>44</sup>:

- iqtisodiy faol aholini sug'urtalash;
- pensiya to'lovlarini ishchilar va sug'urtalanganlarning sug'urta badallari hisobidan moliyalashtirish;
- amalga oshirilayotgan pensiya to'lovlarining sug'urtalanuvchining avvalgi daromadlari va sug'urta stajiga bog'liqligi.

---

<sup>44</sup> Kathryn Anne Edwards, Anna Turner, Alexander Hertel-Fernandez “ A Young Person's Guide to Social security” Economic Policy Institute, 2011 y. p 22-23

Ushbu mexanizmdan Evropaning Germaniya, Frantsiya, Italiya, Ispaniya va Gretsiya kabi mamlakatlarda keng foydalanildi. Mazkur mamlakatlarda pensiya ta'minoti tizimi yagona kontseptsiya asosida faoliyat yuritsada, ularning ba'zi farqli jihatlari mavjud. Xususan, molishlashtirish, tashkiliy tuzilma va funksional vazifalari shular jumlasidandir. Shu boisdan, sug'urtaviy pensiya modeli Evropa Ittifoqi mamlakatlarda aralash shakllarda namoyon bo'ladi. Masalan, taqsimlash (majburiy sug'urta pensiyasi), qo'shimcha pensiya dasturlari (Frantsiya va Ispaniya) taqsimot pensiya tizimi shaklida amalga oshadi, to'lovlarni kapital qo'yimalarga yo'naltirish (Niderlandiya). Mohiyatan bir-biridan farqli tarzda yuzaga kelgan bo'lsada, lekin amaliyotda ular o'zaro aralash holda ham amalga oshadi. Evropa Ittifoqi mamlakatlarda tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ushbu ikki modelning integratsiyasini kuzatish mumkin. Jumladan, bir qator mamlakatlarda universal pensiya ta'minoti tizimlari vujudga kelib, amalga oshayotgan tub iqtisodiy o'zgarishlar sug'urtaviy pensiya ta'minotini yuzaga kelishiga imkon bermoqda. Yoki qo'shimcha pensiya ta'minoti tizimining majburiy (Buyuk Britaniya) shakli joriy etilishi kabilar bunga misol bo'ladi.

Jahon tajribasida hech bir davlatda to'liq jamg'ariladigan yoki taqsimlanadigan pensiya ta'minoti mavjud emas. Qayd etish lozim, barcha pensionerlarning yashash minimumini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni takomillashtirish natijasida pensiya ta'minotining umumiylikka ega bo'layotganligini ko'ramiz.

Umuman olganda, jahon tajribasida pensiya ta'minoti tizimini nazariy jihatdan ikki yirik guruhga ajratiladi<sup>45</sup>:

1. O'rnatilgan to'lov tizimi (Defined Benefit - DB)
2. O'rnatilgan badal tizimi (Defined Contribution - DC)

O'rnatilgan to'lov tizimida pensiya ta'minoti ishtirokchilari muayyan hajmdagi pensiya va nafaqalar bilan ta'minlanishi kafolatlanadi. Mazkur holatda to'lov miqdori aktuar hisoblar yordamida oxirgi yildagi mehnat faoliyati uchun ish

---

<sup>45</sup> Kathryn Anne Edwards, Anna Turner, Alexander Hertel-Fernandez "A Young Person's Guide to Social Security" Economic Policy Institute, 2011 y. p 28

haqlari va oldingi staji asosida hisoblanadi. Pensiya to'lovi pensionerning umri davomida annuitet shaklda amalga oshirilib boriladi. O'rnatilgan badal tizimida pensiya to'lovining miqdori oldingi to'langan badallarning hajmiga bog'liq bo'ladi. Bu borada, ushbu turdagi pensiya fondining mablag'laridan investitsion faoliyat yordamida olingan daromadlar ham pensiya miqdorini oshirishi mumkin yoki aksincha. Mazkur tizimda har bir ishtirokchi alohida hisobraqamga ega bo'ladi va unda badallar jamg'arib boriladi. Ushbu tizimning farqli xususiyatlaridan biri pensiya to'lovlarini olishda riskning mavjudligidir.

Fikrimizcha, pensiya ta'minoti tizimi funktsiyalaridan kelib chiqib aytish mumkin, mamlakatda yaratilgan iqtisodiy qiymatni taqsimlash (o'rnatilgan to'lov tizimi), jamg'arish (o'rnatilgan badal tizimi) jarayonlari yuzaga keladi. Shu boisdan, pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirishda mazkur unsurlarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotlar asosida ta'kidlash lozimki, pensiya ta'minotini quyidagi klassifikatsiya yordamida yanada oydinlashtirish mumkin:

- davlat majburiy pensiya ta'minoti;
- qo'shimcha pensiya ta'minoti tizimi, xo'jalik sub'ektlari tomonidan ishchi-xodimlari uchun pensiya sug'urtasini to'lash orqali yuzaga keladi;
- shaxsiy sug'urtaviy pensiya dasturlari.

Qayd etib o'tilgan uch tabaqali pensiya ta'minoti tizimi Evropa Ittifoqi mamlakatlari uchun xarakterli bo'lib, ularni tashkil etuvchi quyidagi tamoyillarni qayd etish mumkin:

- pensiya ta'minoti tizimini aholini qamrab olish miqyosi;
- pensiya to'lovlarini olishda mavjud bo'lgan shartlar;
- moliyalashtirish manbalari va tamoyillari.

Masalan, hozirgi kunda Buyuk Britaniyada pensiya ta'minoti xizmatining aholini qamrab olish darajasi quyidagicha<sup>46</sup>:

---

<sup>46</sup> Kathryn Anne Edwards, Anna Turner, Alexander Hertel-Fernandez "A Young Person's Guide to Social Security" Economic Policy Institute, 2011 y. p 32

- davlat majburiy pensiya ta'minoti – 65 foiz;
- qo'shimcha pensiya ta'minoti tizimi (xo'jalik sub'ektlari tomonidan ta'minlanadigan pensiya sug'urtasi) – 25 foiz;
- shaxsiy sug'urtaviy pensiya ta'minoti – 10 foiz.

Pensiya ta'minotining muhim jihatlaridan biri – bu aholini qamrab olish miqyosi. Shu boisdan, universal pensiya ta'minoti tizimi mamlakatda doimiy istiqomat qiluvchi aholini ta'minlanishini nazarda tutsa, bundan tashqari, Daniya va Niderlandiya kabi davlatlarda nafaqat doimiy yashovchi o'z fuqarolarini, balki doimiy yashovchi boshqa davlat fuqarolarini ham yashash davrida qamrab olishni ko'zda tutadi. Tadqiqotlar natijasida, ta'kidlash mumkin pensiya ta'minoti aholi qamrab olishi nuqtai nazaridan uch qismga bo'linadi: birinchidan, pensiya sug'urtasi faqat shartnoma asosida faoliyat ko'rsatuvchi kishilarni nazarda tutadi (Daniya va Shvetsiya). Ikkinchidan, shartnoma asosida ishlovchilardan tashqari o'z xususiy faoliyatiga ega bo'lganlarni qamrab oladi (Avstriya, Italiya va Niderlandiya). Uchinchidan, barcha band bo'lgan aholini pensiya ta'minotini o'zida ifoda etuvchi tizim (Frantsiya, Buyuk Britaniya va Shvetsiya).

Fikrimizcha, pensiya ta'minoti tizimini mamlakatdagi pensionerlarni qamrab olishida ba'zi murakkabliklar yuzaga keladi. Bular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mehnatga layoqatli aholining o'lim ko'rsatkichlarining yuqori bo'lishi;
- aholining mehnatga layoqatsiz qismining katta ulushni tashkil etishi;
- davlat majburiy pensiya tizimi bo'yicha imtiyozlarning (asosan yoshga nisbatan) sezilarli darajada ko'p bo'lishi;
- mehnatga layoqatli aholining doimiy ish joyiga ega bo'lishida muammolarning yuzaga kelishi;
- iqtisodiyotda norasmiy ish haqlarining sezilarli darajada ko'payib ketishi.

Fikrimizcha, keltirilgan birinchi ikki muammoning vujudga kelishida ijtimoiy sohaning boshqa bir bo'g'ini – sog'liqni saqlash tizimi muhim rol o'ynaydi. Boshqacha aytganda, optimal tibbiy xizmatlarni rivojlantirish natijasida aholining

o'rtacha umr ko'rish davomiyligi uzayadi. Bu esa o'z o'rnida, pensiya ta'minoti tizimida amaliy tadbirlarni joriy etishni taqozo etadi.

Ushbu ko'rsatkich masalaning bir jihati bo'lsa, ikkinchidan demografik muammolarni yuzaga keltiradi. Ya'ni mehnatga layoqatlilar bilan pensionerlar o'rtasidagi nisbatning ortishiga olib keladi. Mazkur muammolar natijasida Evropada ushbu nisbat 1:1,5 (mehnatga layoqatlilar:pensionerlar)ni tashkil etadi. Uchinchidan, o'rtacha umr ko'rish davomiyligining bir yilga uzayishi YaIMga nisbatan xarajatlarni 1 foizga ortishiga sharoit yaratadi. Shu bilan birga, ushbu mablag'larning 75 foizi<sup>47</sup> inson umrining oxirgi yillarida tibbiy xizmatlar uchun sarflanadi. Fikrimizcha, pensiya ta'minoti tizimining qamrab olish miqyosini oshirish uchun amalga oshirilgan tadbirlarni keng ko'lamli shaklda isloh qilishini taqozo etmoqda. Xususan, aholi sog'ligi ko'rsatkichlarini oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish byudjet mablag'larining oshishi bilan bog'liq bo'lsa, buning natijasida umr ko'rishning 1 yilga uzayishi pensiya yoshiga etgan aholining soni oshishiga zamin yaratadi. Bu esa o'z o'rnida, pensiya yoshidagi aholining ham moddiy ehtiyojlarini, ham tibbiy xizmatlarga bo'lgan talabini ta'minlash zaruratini keltirib chiqaradi.

Qayd etilgan murakkabliklarni barataraf etishda Evropa Ittifoqi mamlakatlari bir qator choralarni qo'llamoqda. Xususan, Buyuk Britaniya 2008 yil fevralda qabul qilingan "Sog'liqni saqlash" kodeksiga ko'ra "mas'uliyat mezon" joriy qilindi. Unga ko'ra, zararli odatlar va shu kabi sog'liqqa keskin ta'sir o'tkazuvchi omillar natijasida kasallanganlarga oxirgi navbatda tibbiy xizmat ko'rsatilishi tatbiq etildi. Sog'liqni saqlash tizimida davlat xarajatlarini jismonan sog'lom insonlarga yo'naltirishni nazarda tutdi. Bundan ko'zlangan maqsad, pensionerlarning turmush tarzi sifatini oshirishdir.

Qayd etish lozim, iqtisodiy tangliklar keskinlashayotgan bir vaziyatda mehnat bozorida nobarqarorliklar yuzaga kelmoqda. Natijasida esa, ish bilan band bo'lganlarning doimiy yoki to'liq ishga ega bo'lmayotganligi pensiya ta'minoti fondlariga ijtimoiy to'lovlar dinamikasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

---

<sup>47</sup> Marc Whitehead "The social security disability puzzle" 2010 y. p.45

Xususan, Evropa Ittifoqi 15dan ortiq mamlakatlarida vaqtinchalik ishga ega bo'layotganlar 25 foizni tashkil etsa, to'liqsiz ish kunida ishlovchilar ulushi esa 20 foizni tashkil etmoqda<sup>48</sup>. Bu esa o'z navbatida, ijtimoiy sug'urta fondlariga kelib tushuvchi mablag'larning kamayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada, pensiya ta'minoti tizimida davlat xarajatlari ulushining o'sish tendentsiyalarini kuzatish mumkin. Masalan, shartli pensiya hisobraqami tizimi amal qiluvchi Italiya, Polsha va Shvetsiya kabi davlatlarda davlat xarajatlarining keskin o'smayotganligini kuzatamiz. Bunda mavjud pensiya ta'minoti institutining shakllanganligi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin. Iqtisodiy va demografik o'zgarishlar sezilarli darajada yuz berayotganligi pensiya ta'minoti qamrovi miqyosiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Shu boisdan, pensiyaga chiqish yoshining qanday belgilanishi muhim hisoblanadi. Ba'zi Evropa Ittifoqi davlatlarida pensiya yoshiga etgandan so'ng ham ish faoliyatini davom ettirish holatlariga ruxsat berilgan. Bu esa, pensiya yoshidan o'tgandan keyingi mehnat faoliyati pensiya miqdorini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Masalaning ikkinchi jihati, ba'zi hollarda mehnatga layoqatlilar bilan pensionerlar o'rtasidagi nisbatning oshishiga sabab bo'ladi.

Qayd etish lozim, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida tug'ilishlar sonining sezilarli kamayishi va o'rtacha umr ko'rish davomiyligining uzayishi natijasida pensiya ta'minoti tizimida murakkabliklar yuzaga kelmoqda. Xususan, Evropada 65 yoshdan oshganlar aholining 16 foizini tashkil etsa, BMTning tadqiqotlariga ko'ra ushbu ko'rsatkich 2030 yilgacha 25 foizga, 2050 yilga borib esa 28 foizga etadi. Hozirgi kunda Evropada 65 yoshdan har bir kishiga 4 ta mehnat qiluvchilar to'g'ri kelsa, 2050 yilga borib mazkur raqam Buyuk Britaniyada 2,4 ni, Frantsiyada 2,3 ni tashkil etsa, Germaniya va Italiyada bir muncha murakkab vaziyat yuzaga kelib, mos ravishda 2 va 1,5 ni tashkil etadi<sup>49</sup>. Pensiya ta'minoti tizimida pensiya yoshini oshirish orqali ba'zim muammolarni hal etish

---

<sup>48</sup> Недосекин А., Могилко С.. Реформирование система пенсионного обеспечения: мировой опыт: <http://pensionreform.ru/58599> - internet manbasi asosida tayyorlangan.

<sup>49</sup> Муравлева Т.В. Новые подходы к определению пенсионного возраста//Финансы и кредит. – Москва, 2011. - №43(475). – С.2-6.

tendentsiyalari Evropa Ittifoqi mamlakatlarida kuzatilmoqda. Xususan, Frantsiya quyi palatasi tomonidan tasdiqlangan pensiya islohotlarida pensiya yoshi 2018 yilga borib 60 dan 62 ga oshirilishi belgilandi. Bu bilan esa, to'liq pensiya olish huquqi 65 dan 67 ga etkaziladi.

1960-2000 yillar mobaynida Evropa Ittifoqida o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 4 yilga uzuaygan bo'lsa, 2060 yilgacha bo'lgan davrda ushbu ko'rsatkich erkaklarda 8,5 yilni, ayollarda 6,9 yilni tashkil etadi. Shuningdek, tug'ilishlarla soni har bir ayolga to'g'ri keluvchi 2,1 ta tug'ilish mezonidan ham kam bo'lmoqda. Masalan, ushbu ko'rsatkichning eng yuqori darajasi Frantsiyada 2,0 ni tashkil etmoqda. Evropa Ittifoqi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich esa, 1,4 bo'lmoqda. Mazkur ko'rsatkich O'zbekistonda 2,5 taga to'g'ri kelmoqda.

Evropa Ittifoqi mamlakatlarida yuzaga kelayotgan bu kabi murakkabliklar ijtimoiy sohada moliyaviy qiyinchiliklarni yuzaga kelishiga ta'sir etmoqda. Bu esa o'z o'rnida, pensiya ta'minoti tizimiga davlat xarajatlari hajmini oshishiga olib kelmoqda. Xususan, pensiya yoshidagi aholining jamiga nisbatan ulushi oshayotganligi tizimda nobarqarorlik omilini aks ettirsa, ikkinchi tomondan yoshi katta aholining tibbiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji 2 barobardan ziyod oshadi. Bu esa, ijtimoiy sohaning rivojlanishida kompleks moliyaviy islohotlarni talab etadi.

Fikrimizcha, pensiya ta'minoti tizimida islohotlarni amalga oshirishda belgilanadigan pensiya yoshi eng muhim ko'rsatkichlardan biridir. Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi bilan ushbu tizimda o'tkaziladigan islohotlarga nisbatan aholining sezuvchanligi oshib boradi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy himoyaning mazkur yo'nalishida yangi metodologik uslublardan foydalanish yoki qo'shimcha ijtimoiy himoya mexanizmlarini joriy etish zarurati tug'iladi.

Pensiya ta'minoti tizimida islohotlarni amalga oshirishda quyidagi omillarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

1. Pensiya ta'minotini qamrab olish ko'rsatkichlari.
2. Pensiya ta'minoti to'lovlarining moslashuvchanligi (inflyatsiya va sotib olish qobiliyatini inobatga olgan holda).

3. Pensiya fondlariga badallarni to'lovchilarning ulushlariga mos ravishda to'lovlarni amalga oshirish.

4. Pensiya ta'minoti tizimida daromadlar olishni diversifikatsiyalash (davlat va xususiy sug'urtaviy).

O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining majburiy shakllari amal qiladi. Bunda davlat pensiya ta'minoti va fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti institutlarini qayd etish zarur. Davlat pensiya ta'minotiga ish haqiga ega bo'lgan fuqarolar tomonidan to'lanadigan majburiy sug'urta badali stavkasini optimal darajada belgilashda xalqaro tajribadan foydalanish muhimdir. Bunda mavjud muammolarning yuzaga kelish shart-sharoitlari va omillarini inobatga olib qo'shimcha chora-tadbirlarni joriy etish lozimdir. Boshqacha aytganda, pensiya ta'minoti tizimini aholini qamrab olish darajasi ko'rsatkichlarini rivojlantirish dolzarblik kasb etadi. Shu bilan birga, pensiya ta'minoti tizimi qamrab olish imkoniyatlarini baholash uning jozibadorligini oshiruvchi ko'rsatkichlarga alohida e'tiborni qaratish lozim, deb o'ylaymiz. Bu esa o'z o'rnida, tizim faoliyatini yanada aniq shakllantirish va takomillashtirishga sharoit yaratuvchi tizimni baholash mezonlari bilan izohlanadi. Ular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ijtimoiy himoyaning minimal mezonining xalqaro standartlarini inobatga olish;
- majburiy ijtimoiy sug'urta rivojlanishi bilan bog'liq muammolarni tizimlashgan holda hal etish;
- majburiy ijtimoiy sug'urtaning huquqiy-me'yoriy bazaning to'liqligi va barqarorligi;
- sug'urta tariflarining ilmiy asoslanganligi;
- sug'urta badallarining yig'iluvchanligini oshirish;
- sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta to'lovlarini amalga oshirishdagi uzilishlarning bo'lmasligi;
- belgilangan pensiya miqdorini manfaatdor tomonidan tekshirish imkonining mavjudligi;

- majburiy ijtimoiy sug'urta zaxirasining asoslanganligi va foydalanish samaradorligi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda ijtmioiy himoya institutini takomillashtirshda, dastlab moliyaviy islohotlarga e'tiborni qaratish muhimdir. Bu borada esa, pensiya ta'minoti tizimi sohaning etakchi bo'g'inlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shu boisdan, pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirishda qayd etib o'tilgan fikr va mulohazalarni inobatga olish muhim xususiyatga ega, deb o'ylaymiz.

### **3.2. Davlat pensiyalarini amal qilish mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari**

Jahondagi pensiya ta'minoti amaliyoti ko'rsatishicha, ijtimoiy sug'urtani moliyaviy ta'minlashning ishonchli usuli jamg'armani uch kanalli shakllantirish hisoblanadi. Bunda og'irlikning katta qismi ish beruvchilar(50-60%), kichikroq qismi ishlovchilar (10-20%) va aholining muhtoj qatlamini himoya qilish vazifasi bo'lgan - davlat (30-40%) o'rtasida taqsimlansa, o'zini oqlaydi. Pensiya tizimining moliyaviy holatini yaxshilash, pensionerlarning moddiy ta'minlanganlik darajasini oshirish va pensiya ta'minotini boshqarishni optimallashtirish yo'li bilan xizmatlar sifatini yaxshilash islohotlarning maqsadi hisoblanadi.

Pensiya ta'minoti moliyaviy resurslarni qayta taqsimlashning yirik oqimi bo'lib, iqtisodiyotda mahsulotlar, resurslar va daromadlarning butun doiraviy aylanishiga, aholi iqtisodiy faolligini motivatsiyalashga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Mavjud birdamlik pensiya tizimi aholini iqtisodiy faollikka va mehnat unumdorligini oshirishga undamaydi. Shu tariqa pensiya tizimi va iqtisodiyotning qolgan qismlari bir-biriga uzviy bog'liqdir. Shuning uchun avvalo iqtisodiy o'sishni kutish va so'ngra ijtimoiy islohotlarni boshlash kerak degan strategiyani oqilona deb bo'lmaydi. Pensiya tizimini isloh etish iqtisodiy o'sish uchun zarur sharoit yaratadi. Pensiya tizimining qurilishi bandlik, o'z navbatida pensionerlar soniga ta'sir ko'rsatadi. Pensiya islohati ish beruvchilar va ishlovchilarni o'z-o'zini boshqarish sohasini pensiya sug'urtasiga berib, davlat pensiya tizimini turli

istisnolardan ozod etadi, kishilarning davlat pensiya sug'urtasidagi moliyaviy ishtirokini pensiyaga bog'liqligini kuchaytiradi.

“Pensiya tizimining rivojlanishi mumkin bo‘lgan risklarni kamaytirish uchun barcha uch darajaning birligini ta’minlash”<sup>50</sup> dan iborat. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida yuqoridagi pensiya tizimidagi uch darajaning optimal nisbatini tanlash dolzarb va hal qilinishi lozim bo‘lgan masala hisoblanadi. Bunda har bir ishlovchining ish haqi va sug'urta badallarini hisobga olish zarurdir. Pensiya tizimini sug'urta tamoyili asosida shakllantirish uchun hisob-kitob axborot bazasini personal hisobini joriy etish orqali tashkil etish lozim.

Personal hisob-kitob g'oyasi juda sodda bo‘lib, har bir ishlovchi uchun kelajakda yosh bo‘yicha mehnat pensiyasini tayinlash uchun zarur bo‘lgan shaxsiy hisob ochiladi. Hisob tizimida kishi o‘zining hayoti mobaynida qaerda ishlamasin, uning staji, ish haqi va pensiya tizimiga to‘lanadigan sug'urta badallari to‘g‘risidagi ma’lumotlar individual shaxsiy hisobga tushadi. Pensiya qonunchiligida belgilangan sug'urta holati sodir bo‘lganda personal shaxsiy hisobdan sug'urtalangan shaxsga pensiya tayinlanadi.

Personal hisob ishlovchining pensiya xuquqlarini fiksatsiyalash va saqlashni ta’minlab, mehnat bozoridagi hisob texnologiyasi bilan bog'liq boshqa muammolarni hal qilish imkonini beradi.

Personal hisob-kitob texnologiyasini joriy etishdagi muhim muammolardan biri – hisobning ishonchliligidir. Sug'urtalangan shaxsning umumiy va maxsus staji to‘g‘risidagi asosiy axborot manbai bo‘lgan mehnat daftarchasi, xususan tashkilotdan fuqarolarga pensiya tayinlash uchun beriladigan ish haqi miqdori to‘g‘risidagi ma’lumotnoma o‘zining ishonchliligini yo‘qotgan. Amaliyot ko‘rsatishicha, ko‘pincha bu ma’lumotlarda sun’iy tarzda oshirib ko‘rsatilgan holatlar uchraydi. Shuningdek belgilangan muddat xizmat qilganligini belgilaydigan yoki kamaytirilgan yosh bo‘yicha pensiyaga chiqish xuquqini beruvchi maxsus staj to‘g‘risidagi ma’lumotlarning ishonchliligi ham kamdir.

---

<sup>50</sup> А.Мойрер. Какую систему пенсионного обеспечения выберат: перераспределительную или накопительную? «Человек и труд». Журнал №2, 2010г.

Alohida mehnat sharoitiga ega bo'lgan kasblar bo'yicha pensiya imtiyozlari tizimining o'zi bunga imkoniyat yaratadi. «Ishlangan» maxsus staj bo'yicha kasblar soni to'g'risidagi axborotlarni nazorat qilish imkonini, xususan nodavlat korxonalarida qiyinlashtiradi.

Mazkur holatning vujudga kelish sababi shuki, pensiya xuquqini korxonalar qayd etadi, pensiyani esa ushbu shaxs to'lagan sug'urta badallariga bog'liq bo'lmagan holda davlat tayinlaydi. Oqibatda esa pensiyalar staj va to'langan sug'urta badallariga ko'ra emas, balki tegishli hujjatlarga «ega bo'lish» qobiliyatiga asosan belgilanadi. Yuqorida qayd etishgan holatlar mehnat bozoridagi hisob texnologiyasini o'zgartirish zaruratini vujudga keltiradi. Bozor munosabatlarini shakllantirish jarayonida pensiya tizimi jamiyatda yuzaga kelgan iqtisodiy munosabatga muvofiq kelishi va ishlovchilarning pensiya xuquqlarini himoya qilishi lozim. Bu muammoni esa personal hisob hal qiladi.

Personal hisob axborot bazasini qo'llash ishlovchi aholi va pensionerlar to'g'risidagi qator ishonchli, aniq statistikaga ega bo'lish imkonini beradi. Statistik ma'lumotlarga pensionerlar va ishlovchilarning hududlar va tarmoqlar bo'yicha soni, o'rtacha ish haqi, pensiya tayinlash uchun imtiyozli asosga ega bo'lgan ishlovchilar soni, vaqtinchalik ishlamayotganlar soni va hokazolar kiradi. Mazkur ma'lumotlar aktuar hisoblarni tashkil etish uchun zarur bo'lgan pensiya tizimi byudjeti loyahasini tuzish, uni tashkil etish va strukturasi to'g'risidagi strategik qarorlarni tayyorlashda juda muhimdir.

Personal hisob mexanizmi, shuningdek uni amalga oshirish taxnologiyasi kelgusida davlat pensiya sug'urtasi bilan bir qatorda professional pensiya tizimini tashkil qilish va rivojlantirishda ham qo'llanilishi alohida mehnat sharoiti bilan bog'liq imtiyozli pensiyalar muammosini birmuncha hal etish imkonini beradi. Ular yirik nodavlat pensiya jamg'armalarida qo'llanilishi mumkin. Tabiiyki, barcha nodavlat pensiya jamg'armalari u yoki bu shaklda o'zlarining sug'urtalanuvchilari sug'urta badallarining to'lash to'g'risidagi personal hisobini yuritishi lozim bo'ladi.

Personal hisobni qo'llash tizimli, xususan, xuquqiy asoslarini, texnologiya, tashkiliy va kadrlar asosini muvofiqlashtirgan holda rivojlantirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Personal hisob fikrimizcha, quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

- birinchidan, uning me'yorlari faqat hisob ishtirokchilari o'rtasida axborot almashinuvini tartibga solishi kerak;

- ikkinchidan, sug'urtalangan shaxsning pensiya xuquqlarini himoyalash. Ya'ni personal shaxsiy hisobga kiritiladigan axborotlarning ishonchliligini ta'minlovchi tartiblar belgilanishi, bu ma'lumotlarning maxfiyligiga rioya qilish va ularni saqlashning ishonchliligini ta'minlash bo'yicha me'yorlar ishlab chiqilishi lozim;

- uchinchidan, personal hisobga munosabatning majburiyligi, ya'ni ish beruvchilar va ishlovchilarga personal hisobda ro'yxatda turish va belgilangan muddatda ma'lumot berish majburiyati yuklanishi kerak.

- to'rtinchidan, personal hisobga kiritiladigan ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minlashda o'z-o'zini boshqarish tamoyiliga rioya qilish.

Personal hisob kishilarning mentalitetini o'zgartirishi, ya'ni u kishilarni o'zlarining pensiyalarini moliyaviy ta'minoti to'g'risida pensiya yoshiga etish arafasida emas, balki faol faoliyatlari, pensiya badallarini to'lash davridanoq o'ylashlariga undaydi. Personal hisobning kiritilishi va amal qilishi avvalo pensiya tizimi ishtirokchilarining tizimga munosabatini isloh qiladi va personal hisob islohoti natijasi hisoblanadi

Pensiya ta'minoti moliyaviy holatini takomillashtirish yo'llaridan biri kasbiy va muddatidan avval pensiya, shuningdek belgilangan yil uchun pensiyalarni moliyaviy ta'minlash mazkur xuquqlardan foydalanuvchi ishlovchilar soniga uzviy bog'liq bo'lishi kerak. Badallarning ish beruvchilar va davlat o'rtasida taqsimlanishi moliyaviy yukni davlat zimmasiga oluvchi obektiv, o'zgarmas omillar va moliyaviy yukni ish beruvchilar zimmasiga oluvchi subektiv omillar (eskirgan texnologiyalar va zararli mehnat sharoiti) tufayli sog'liqning zararlanishi

kasbiy xavf-xatari me'zonlari asosiga qurilishi kerak. Mazkur shakldagi badallar miqdorining ortishi ish beruvchilardan barcha oldingi sug'urta badallarining miqdorini qayta ko'rib chiqishni, shuningdek aholidan olinadigan soliqlar strukturasi tegishli o'zgartishlar kiritishni talab qiladi.

Pensiya sohasining barcha jabhalarini qamrovli ravishda izchil rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Davlat pensiya tizimini 2012-2016 yillarda yanada barqaror rivojlantirish, maqbul ijtimoiy muhit shakllantirish orqali fuqarolarga kafolatlangan davlat pensiyalarini taqdim etish sharoitlarini yaxshilash bo'yicha" Kompleks dasturi tasdiqlandi.

Joriy yilda pensiya tizimi uchun strategik jihatdan muhim bo'lgan quyidagi yo'nalishlarda ishlar tashkil etildi:

Birinchidan, davlat pensiya ta'minotining normativ-huquqiy bazasi takomillashtirildi. Davlat pensiya ta'minoti tizimining barqaror va oqilona tizimini shakllantirish uchun qonunchilik va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, bu borada qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan zamonaviy me'yorlarni ishlab chiqishga jiddiy e'tibor berildi.

Bugungi kunda Vazirlar Mahkamasining Qarori asosida davlat pensiya va nafaqalarni tayinlanishi va ularning to'lovi monitoringini amalga oshirilishini tartibga solish bo'yicha tasdiqlangan yo'riqnomaga muvofiq fuqarolarga pensiyalarni tayinlash va to'lovini amalga oshirish mexanizmi to'liq o'z ifodasini topdi.

Shu bilan birga, bugungi kunda davlat pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish ishlari davom etmoqda.

Ikkinchidan, tizimni zamonaviy axborotlashtirish orqali pensiya xizmati ko'rsatish ko'lamini yaxshilandi. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tizimida texnik modernizatsiya qilish masalasiga ustuvor vazifa sifatida alohida e'tibor berilar ekan, avvalambor, pensiya ta'minotini tashkil etishda avtomatlashtirilgan axborot tizimini ommaviy ravishda joriy etilishi, bu esa sohaga zamonaviy

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni jadal kirib borilayotganligidan dalolat beradi.

Shu maqsadda, eng avvalo, respublikamizda istiqomat qiluvchi barcha pensiya va nafaqa oluvchilarning ishonchli himoyalangan, yagona markazlashgan ma'lumotlar bazasi shakllantirildi. Bunda, respublikamizda istiqomat qiluvchi 2,9 mln.dan ortiq pensiya va nafaqa oluvchilarning yagona elektron ma'lumotlar bazasini tashkil etadi. Axborot jihatida shundaki, bugungi kunda aniq davrda markazlashgan holda 140 dan ortiq hisobotlarni ushbu dastur orqali shakllantirishga erishildi. Amaliyotga tadbiriq etilgan dastur, o'z salohiyatini joriy etilishining birinchi kunlaridanoq ko'rsata boshladi. Buning natijasida, noqonuniy pensiyalarni tayinlanishi oldi olinib, Pensiya jamg'armasining mablag'lari tejalishiga erishilmoqda.

PK "Pensiya" dasturiy ta'minoti doimiy ravishda takomillashuvga imkoni mavjudligini inobatga olgan holda, yaqin kelajakda mazkur dasturiy ta'minotni tashqi idoralarning dasturiy ta'minotlari bilan o'zaro ma'lumot almashinuvini tashkil etish borasida jadal ishlar olib borilmoqda. Shu jumladan, o'tgan davr mobaynida G'aznachilik, OAJ "O'zbekiston pochta", DT "Xalq bank"i va Soliq qo'mitalari bilan o'zaro elektron xujjat almashinuvini to'liq yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan.

Dasturning yana bir jozibador ta'rifi sifatida uning interaktiv ma'lumot servis xizmatini amalga oshira olishini qayd etish mumkin. Ushbu xizmat turiga, pensiya oluvchilarga ularning pensiya miqdorlari xususidagi ma'lumotlarni mobil telefonlariga sms-maktub sifatida yuborishdir.

Mazkur tadbirlar asosida soha samaradorligining ortishi, tezkor va aniq hisobotlari shakllanishi, pensiya tayinlanishi va to'lanishida inson omilini kamaytirish orqali jamg'arma mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi albatta.

Uchinchidan, Fuqarolarga davlvt pensiyalarini tayinlash jarayoni takomillashtirildi. Fuqarolarga davlat tomonidan kafolatlangan pensiyalarini o'z vaqtida va qonuniy tayinlanishini ta'minlash maqsadida Pensiya jamg'armasining

joylardagi tuman (shahar) bo'limlarida fuqarolarni qabuli uchun alohida qabulxonalar tashkil etilgan. Mazkur qabulxonalar barcha zaruriy adabiyotlar, mebel jihozlari va lokal tarmog'iga ulangan kompyuter vositalari bilan ta'minlangan holda fuqarolarni pensiya ta'minotiga doir ularni qiziqtirgan savollarga mas'ul mutaxassislar tomonidan tegishli javoblar berilishi amaliyoti joriy etildi.

To'rtinchidan, Pensiya jamg'armasining kadrlar salohiyati tobora oshmoqda. Pensiya ta'minoti sohasida kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishga hamda ushbu sohani oliy ma'lumotli malakali kadrlar bilan ta'minlashga alohida etibor qaratilgan va bu borada bir qator samarali ishlar olib borilmoqda. 2015 yilning uchinchi choragi yakunlariga ko'ra, 2010 yilda tizimda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning 40,7 foizi oliy ma'lumotli bo'lgan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich hisobot davrida 63,4 foizga ko'payishiga erishildi.

“Pensiya Informatsion dasturi” orqali pensiya oluvchilar juda ko'p qulayliklarga ega boladi, bir joyni o'zida ko'plab ma'lumotlar olish, muloqotlashish, munosabat bildirish huquqiga ega bo'lish, Internet savodxonligi oshirib borish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladi. Axborot texnologiyalari asrida dasturiy ta'minotlar berayotgan imkoniyatlardan foydalanish bizni asosiy maqsadimiz hisoblanishi zarur.

Yuqorida qayd etilganlarning barchasi aholi turmush farovonligini ta'minlash, nuroniy va pensionerlarni e'zozlash, tizimini takomillashtirib borish orqali fuqarolarning davlat pensiya ta'minotini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

### III Bob Bo'yicha xulosa

III Bob Bo'yicha xulosalarimiz quyidagilardan iborat:

1. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida tug'ilishlar sonining sezilarli kamayishi va o'rtacha umr ko'rish davomiyligining uzayishi natijasida pensiya ta'minoti tizimida murakkabliklar yuzaga kelmoqda. Xususan, Evropada 65 yoshdan oshganlar aholining 16 foizini tashkil etsa, BMTning tadqiqotlariga ko'ra ushbu ko'rsatkich 2030 yilgacha 25 foizga, 2050 yilga borib esa 28 foizga etadi. Hozirgi kunda Evropada 65 yoshdan har bir kishiga 4 ta mehnat qiluvchilar to'g'ri kelsa, 2050 yilga borib mazkur raqam Buyuk Britaniyada 2,4 ni, Frantsiyada 2,3 ni tashkil etsa, Germaniya va Italiyada bir muncha murakkab vaziyat yuzaga kelib, mos ravishda 2 va 1,5 ni tashkil etadi;

2. Pensiya ta'minoti tizimida islohotlarni amalga oshirishda quyidagi omillarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- pensiya ta'minotini qamrab olish ko'rsatkichlari;
- pensiya ta'minoti to'lovlarining moslashuvchanligi (inflyatsiya va sotib olish qobiliyatini inobatga olgan holda);
- pensiya fondlariga badallarni to'lovchilarning ulushlariga mos ravishda to'lovlarni amalga oshirish;
- pensiya ta'minoti tizimida daromadlar olishni diversifikatsiyalash (davlat va xususiy sug'urtaviy).

3. Mamlakatimizda ijtmioiy himoya institutini takomillashtirishda, dastlab moliyaviy islohotlarga e'tiborni qaratish muhimdir. Bu borada esa, pensiya ta'minoti tizimi sohaning etakchi bo'g'inlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shu boisdan, pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirishda qayd etib o'tilgan fikr va mulohazalarni inobatga olish muhim xususiyatga ega deb o'ylaymiz.

## XULOSA

Jahonda hukum surayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqroz, barcha rivojlangan mamlakatlarda kuzatilayotgan aholining keksayib borishi, ish bilan band aholiga nisbatan pensionerlar sonining doimiy oshib borishi, pensioner va ishlovchilar soni o'rtasidagi o'zaro nisbatning kattaligi pensiya ta'minoti tizimining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki pensiya xizmati darajasini ko'tarish, buning uchun qo'shimcha zaxiralarni jalb etish, pensiya tizimlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ishchining pensiyasini bevosita uning o'z mehnati bilan qo'shgan hissasiga bog'lash hamda nodavlat pensiya tizimini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishida oldiga qo'ygan vazifalarni hal qilish va olib borilgan tahlillar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi.

1. Hozir davlatning eng muhim ijtimoiy muammolaridan biri – aholining turmush darajasini oshirish bo'lib turibdi. Buni hal qilishning asosiy yo'llaridan biri esa pensiyaga chiqqan fuqarolarning yaxshi yashashlariga imkon beradigan pensiya ta'minoti bo'ladi. Pensiya tizimini tuzishdan maqsad keksa fuqarolar faqir yashamasligi uchun davlatning xayriya qilishi emas, balki inson keksayganda uning to'kin yashashiga imkon beradigan pensiya tizimini moliyalash usulini o'ylab topish, ijtimoiy adolatni ta'minlash bo'ladi. Turli davlatlarda bu maqsadga erishish yo'llari bir-biridan farq qiladi.

2. O'zbekiston da pensiya tizimi barqarorligini ta'minlash va uning samarali faoliyat yuritishi uchun jahon tajribasidan foydalangan holda qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha islohatlar amalga oshirish lozim.

3. Pensiya ta'minoti masalasi ayniqsa XX asrning 80-yillarida murakkablashdi – aynan shu vaqtda dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarida pensiya tizimi islohotlari boshlandi. Ishlayotganlar (to'laydiganlar) bilan ishlamayotganlar (pensiya oladiganlar) o'rtasidagi farq ko'paygani uchun taqsimlash tizimi ishlamay qoldi va bu muammo pensiya tizimini isloh qilishga

majbur qildi. Pensiya ta'minotidagi farq asosan davlat xarajatlari hisobidan qoplanardi, ya'ni bu ham pensiya ta'minoti o'zgarishiga sabab bo'ldi.

Pensiya ta'minoti tizimida islohotlarni amalga oshirishda quyidagi omillarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

1. Pensiya ta'minotini qamrab olish ko'rsatkichlari.
2. Pensiya ta'minoti to'lovlarining moslashuvchanligi (inflyatsiya va sotib olish qobiliyatini inobatga olgan holda).
3. Pensiya fondlariga badallarni to'lovchilarning ulushlariga mos ravishda to'lovlarni amalga oshirish.
4. Pensiya ta'minoti tizimida daromadlar olishni diversifikatsiyalash (davlat va xususiy sug'urtaviy).

O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining majburiy shakllari amal qiladi. Bunda davlat pensiya ta'minoti va fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti institutlarini qayd etish zarur. Davlat pensiya ta'minotiga ish haqiga ega bo'lgan fuqarolar tomonidan to'lanadigan majburiy sug'urta badali stavkasini optimal darajada belgilashda xalqaro tajribadan foydalanish muhimdir. Bunda mavjud muammolarning yuzaga kelish shart-sharoitlari va omillarini inobatga olib qo'shimcha chora-tadbirlarni joriy etish lozimdir. Boshqacha aytganda, pensiya ta'minoti tizimini aholini qamrab olish darajasi ko'rsatkichlarini rivojlantirish dolzarflik kasb etadi. Shu bilan birga, pensiya ta'minoti tizimi qamrab olish imkoniyatlarini baholash uning jozibadorligini oshiruvchi ko'rsatkichlarga alohida e'tiborni qaratish lozim, deb o'ylaymiz. Bu esa o'z o'rnida, tizim faoliyatini yanada aniq shakllantirish va takomillashtirishga sharoit yaratuvchi tizimni baholash mezonlari bilan izohlanadi. Ular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ijtimoiy himoyaning minimal mezonining xalqaro standartlarini inobatga olish;
- majburiy ijtimoiy sug'urta rivojlanishi bilan bog'liq muammolarni tizimlashgan holda hal etish;

- majburiy ijtimoiy sug'urtaning huquqiy-me'yoriy bazaning to'liqligi va barqarorligi;
- sug'urta tariflarining ilmiy asoslanganligi;
- sug'urta badallarining yig'iluvchanligini oshirish;
- sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta to'lovlarini amalga oshirishdagi uzilishlarning bo'lmasligi;
- belgilangan pensiya miqdorini manfaatdor tomonidan tekshirish imkonining mavjudligi;
- majburiy ijtimoiy sug'urta zaxirasining asoslanganligi va foydalanish samaradorligi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib pensiya tizimi barqarorligini ta'minlashga oid quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Ish beruvchilar va ishlovchilar tomonidan to'lanadigan majburiy sug'urta badallari o'rtasida tafovutni qisqartirish ya'ni, ishlovchilarning hissasini bosqichma-bosqich oshirib borish. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda yagona ijtimoiy to'lov foiz stavkasini yilma yil kamaytirib borish, sug'urta badallarini esa oshirib borish maqsadga muvofiq bo'lardi.

2. Erkaklar va ayollar o'rtasida pensiyaga chiqish yoshi va talab qilinadigan ish staj o'rtasidagi tafovutni qisqartirishni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Pensiya ta'minoti tizimida muassasalar va tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro axbarot almashinuv tizimini ishlab chiqish va uni takomillashtirish lozim.

4. "Ish staji" tushunchasidan voz kechib, "sug'urta staji" tushunchasini kiritish, ya'ni pensiyalarni hisoblashda faoliyatning faqat majburiy pensiya badallari to'langan davrlarinigina hisobga olish kerak;

5. Ayollar va erkaklar umr ko'rish davomiyligi va ijtimoiy sug'urta badallarini to'lash vaqti davomiyligini hisobga olgan holda pensiya yoshi va ish stajini yahlitlash lozim. (ayollar 55 yoshda 20 yillik ish staji bilan yoshga doir pensiyaga chiqadilar, ularning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi-o'rtacha 75,8 yil,

erkaklarda 60 yoshda 25 yillik ish staji bilan yoshga doir pensiyaga chiqadilar,ularning o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi-o‘rtacha 71,1 yil)

6. Nogironlar uchun “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonunning talablariga asosan pensiyani hisoblab chiqarishda inobatga olinadigan o‘rtacha ish haqi eng kam ish haqining sakkiz barobari bilan chegaralanishini qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi;

7. O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi, Mehnat va aholini ijtimoiy himoyalash vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi va Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi o‘rtasida kelgusida ishda shikastlanish va kasb kasalliklari holatlarini qisqartirishga, shuningdek ularning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni kuchaytirishga qaratilgan o‘zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash lozim;

8. Nodavlat pensiya tizimini shakillantirish uchun qonunchilik asoslarini yaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

### **I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari**

#### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T., O‘zbekiston 1992 yil.
2. “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentabrdagi 938-XII-son Qonuni.
3. “Aholini ish bilan ta‘minlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 1998 yil 1 mayda tasdiqlangan yangi tahriri (616-I-son Qonun).
4. “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining 2004 yil 2 dekabrdagi 702-II-son Qonuni.
5. “Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini investitsiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki Boshqaruvining 2006 yil 7 oktabrdagi 88-sonli va 282-V sonli qarori asosida tasdiqlangan.
6. “Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun O‘zbekiston Respublikasining 2008 yil 11 iyuldagi 162-son Qonuni.
7. “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartishlar kiritish haqida. O‘zbekiston Respublikasi qonuni.2007 yil 7 dekabr,O`RQ-119-son.
8. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi -T., O‘zbekiston 2008 yil.
9. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi- T., O‘zbekiston 2010 yil.
10. “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”. O‘zbekiston Respublikasi qonuni. 2010 yil 22 dekabr,O`RQ-272-son.

11. “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartishlar kiritish haqida. O‘zbekiston Respublikasi qonuni.2012 yil 5 yanvar,O`RQ-318-son.

12. O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet kodeksi” T. 2013 yil 26-dekabr.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining Aholining ish bilan bandligini kengaytirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2008 yil 29 dekabrda PQ-1024-son Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. PQ-1449-son 24.12.2010.

15. “O‘zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. PQ-1675-son 30.12.2011.

16. “O‘zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. PQ-1887-son 25.12.2012.

17. “O‘zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. PQ-2099-son 25.12.2013.

18. “O‘zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to’g’risida”gi Prezident qarori. PQ-2270-son. 4.12.2014.

19. “O‘zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to’g’risida”gi Prezident qarori. PQ-2455-son. 22.12.2015.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2009 yil 30 dekabrda PQ-1252-son Qarori.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2009 yil 30 dekabrda PF-4161-son Farmoni.

22. “O‘zbekiston Respublikasi Ish bilan ta’minlashga ko‘maklashuvchi davlat jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida” Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 2 apreldagi 173-son qaroriga 1-ilova.

23. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 apreldagi 107-sonli “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan normativ-huquqiy xujjatlarni tasdiqlash haqida”gi Qarori.

24. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.05.2011 yil 145-son Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 21 dekabrda 595-son Qarori bilan tasdiqlangan ‘Xalq banki tomonidan fuqarolarni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida shaxsan hisobga olishni yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida” gi Qarori.

25. “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 21.12.2004 yil 595-son qarori.

26. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12 dekabr 2012 y.dagi 350-son “Ijtimoiy nafaqalarni tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

27. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15 fevral 2013 y.dagi 44-son “Kam ta’minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori.

28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 21 noyabr, PF-4672-sonli “Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida”gi Farmoni

29. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2011 yil 14 ktyabr, 63-son “Pensiya ishlarini rasmiylashtirish va yuritish tartibi hamda pensiya hujjatlarining shakllari va ularni to‘ldirish qoidalari to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida” gi buyrug‘i

30. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2015 yil 30 yanvar,6-son “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tomonidan pensiya, nafaqa va boshqa to‘lovlarni to‘lashni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida” gi buyrug‘i

31. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo‘lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. – Prezident I.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi, 07.12.2010.

32. Prezident I.Karimovning BMT Sammiti Mingyillik Rivojlanish Maqsadlariga bag‘ishlangan yalpi majlisidagi nutqi. Xalq so‘zi // 21.09.2010

33. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari / I.A.Karimov. – T: O‘zbekiston , 2009. – 56 b.

34. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Toshkent.: “O‘zbekiston ”. 2011 y. 52 b.

35. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. -T.: O‘zbekiston . 2012 y. 58 b.

36. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish” – T.: O‘zbekiston . 2013 y. 57 b.

37. I.A. Karimov “2014 yil yuqori o‘sish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013-yilning asosiy yakunlari va 2014-yilda O‘zbekiston ni ijtimoiy-

iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. 18.01.2014 yil

38. “2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir” O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. 19.01.2016 yil.

## **II. Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar**

1. Allayarov Sh., Toshmuhammedova D.. Davlat pensiya ta‘minoti (o‘quv qo‘llanma) – T.: «IQTISOD-MOLIYA» 2014y. 251 b.

2. Антропов В.В. Социальная защита в странах Европейского союза. Монография. -Москва.: Издательство «Экономика».2006 г. 173стр.

3. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. –T.: «Mehnat». 2004. - 670 b.

4. Карчевский В.В., Андросова Л.Д., Окунева Л.П., Смирнова Е.Е. Целевые бюджетные и внебюджетные фонды. Учебное пособие. – М.: “Вузовский учебник”. 2011. -224 с.

5. Ерошенков С.Г. Переход к накопительной пенсионной реформе: мировой опыт и возможности применения его в России. - М: МАКС Пресс., 2012. - 251 с.

6. Mirzamahmudov M.M. Maqsadli jamg‘armalardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. -T.: «IQTISOD-MOLIYA». 2013. 112 b.

7. Nurmuxamedova B., Kabirova N. “Moliya”, O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2014 y. 207 bet

8. Srojiddinova Z. O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi. «infoCOM.UZ». Toshkent-2010y. 500 bet

9. Xaitov A., Ziyadulaev M. O‘zbekiston da pensiya ta’minoti va xorijiy tajribasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Adolat”. 2009. -172 b.
10. Qosimova G.A. Ijtimoiy-madaniy sohalarni rivojlantirishda byudjet siyosati. «Moliya». T., 2004. 152 b.
11. Qosimova G.A. Ijtimoiy siyosatning yo‘nalishlari. Monografiya. -T.: «IQTISOD-MOLIYA». 2008. 112 b.
12. Qosimova G.A., Karimova Z.X. Byudjetdan tashqari fondlar. O‘quv qo‘llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2009. - 212 b.
13. Kathryn Anne Edwards, Anna Turner, Alexander Hertel-Fernandez “A Young Person’s Guide to Social security” Economic Policy Institute,2011 y.
14. Marc Whitehead “The social security disability puzzle” 2010 y.

### **III. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar**

1. Abdullayev Z.A. Xorijiy davlatlarda pensiya ta’minoti tizimini isloh qilish muammolari. “Pensiya ta’minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – T.:Universitet. 2014 y.
2. Alimova G. Ijtimoiy sug‘urtaning mazmun mohiyati va nazariy asoslari. // Birja Ekspert. -Toshkent. 2012. №6. – B.10-12.
3. Allayorov Sh.. Mirzamaxmudov M. Pensiya jamg‘armasi faoliyatining jahon amaliyotidagi taraqqiyot bosqichlari. // Moliya. -Toshkent. 2012. №4. – B.134-139.
4. D.R.Vahobov. Pensiya tizimini isloh qilishning jahon tajribasi // Moliya. – Toshkent, 2010.- № 4.– B. 21-27.
5. Vaxabov D.R. “Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida pensiya tizimini takomillashtirishning yo‘nalishlari” mavzusi bo‘yicha iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan disertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2012 -22 b.
6. Vaxabov D.R. Jahon pensiya tizimining asosiy yo‘nalishlari // Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovatsion faoliyatni investitsiyalash.

Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya tezislar to'plami.– Toshkent, 2010. – B. 241-244.

7. Голубева С.В. Развитие пенсионных систем зарубежных стран и России в условиях демографического старения: автореф дис...к.э.н. -М.: Российский университет Дружбы народов. 2012. -27 б.

8. Shokirova F. Innovatsion rivojlanish modellari va iqtisodiy o'sish. // Moliya. –Toshkent. 2012. №3. –B. 73-79.

9. Xaydarov M. Davlat byudjetining asosiy parametrlari obod turmush yilini ta'minlash omili sifatida. // Iqtisod va moliya. -Toshkent. 2013. -№1. – B. 6-9.

10. Емельянова Т.В. Финансовое обеспечение пенсионных систем в странах ЕС и России//Финансы. – Москва, 2008. - №10. – С. 64.

11. Ижаева А.Р. Концепция развития пенсионной системы Российской Федерация в посткризисный период: автореф. ... к.э.н. – Москва: ФГБОУ ВПО Гос. Унив. Управ..2013. – 31 с.

12. Мойрер А. Какую систему пенсионного обеспечения выбрать: перераспределительную или накопительную? “Человек и труд”. Журнал №2, 2010г.

#### **IV. Internet saytlari:**

[www.gov.uz](http://www.gov.uz)-(O'zbekiston Respublikasi hukumati portali)

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)-(Axborot ta'lim tarmog'i)

[www.solliq.uz](http://www.solliq.uz)-(O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi)

[www.lex.uz](http://www.lex.uz)-(O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari milliy bazasi portali)

[www.publicfinance.uz](http://www.publicfinance.uz)-(O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimini isloh qilish loyihasi portali)

[www.stat.uz](http://www.stat.uz)- (O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi)

[www.pfru.uz](http://www.pfru.uz)-O'zbekiston Respublikasi byudjetdan tashqari Pensiya Jamg'armasining rasmiy sayti

## ILOVALAR

### 1-ilova

#### **Pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan amaldagi ish haqini ish haqining yakka tartibdagi koeffitsientlarini qoʻllagan holda qayta hisoblab chiqish tartibi toʻgʻrisidagi nizomga 2-ilova**

1. Erkak kishi 2011 yil 12 aprelda 60 yoshga toʻlgach pensiya tayinlash uchun murojaat qildi va uning oxirgi oʻn yil mobaynida mehnat faoliyatining 5 yillik davri uchun 2006 yil may — 2011 yil aprel oylari tanlandi.

2. Pensiya tayinlanishidan oldingi 12 oy uchun oʻrtacha eng kam oylik ish haqi miqdorini aniqlaymiz.

Oʻrtacha eng kam oylik ish haqi miqdori = (37680 soʻm (2010 yil aprel — iyuldagi eng kam oylik ish haqi miqdori) \* 4 + 45215 soʻm (2010 yil avgust — noyabrdagi eng kam oylik ish haqi miqdori) \* 4 + 49735 soʻm (2010 yil dekabr — 2011 yil martdagi eng kam oylik ish haqi miqdori) \* 4) / 12 = 44210,0 soʻm.

3. Ish haqi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar asosida (maʼlumotnoma boʻyicha) ish haqining yakka tartibdagi koeffitsientlarini va har bir oy uchun hisoblab chiqilgan ish haqini aniqlaymiz:

Davrlar	Eng kam oylik ish haqi miqdori	Pensiyalarni hisoblash uchun qoʻllaniladigan ish haqi	Ish haqining yakka tartibdagi koeffitsienti	Oʻrtacha eng kam oylik ish haqi miqdori	Qayta hisoblab chiqilgan ish haqi
1	2	3	4 (3/2)	5	6 (4*5)
<b>2006 yil</b>					
May	9 400	72 000	7,6596	44 210,0	338 630,92
Iyun	9 400	123 400	13,1277	44 210,0	580 375,62
Iyul	10 800	82 800	7,6667	44 210,0	338 944,81
Avgust	10 800	82 800	7,6667	44 210,0	338 944,81
Sentyabr	10 800	82 800	7,6667	44 210,0	338 944,81
Oktyabr	10 800	82 800	7,6667	44 210,0	338 944,81
Noyabr	12 420	95 220	7,6667	44 210,0	338 944,81
Dekabr	12 420	95 220	7,6667	44 210,0	338 944,81
Jami:					2 952 675,40
<b>2007 yil</b>					
Yanvar	12 420	95 220,00	7,6667	44 210,0	338 944,81
Fevral	12 420	95 220,00	7,6667	44 210,0	338 944,81
Mart	12 420	95 220,00	7,6667	44 210,0	338 944,81
Aprel	12 420	95 220,00	7,6667	44 210,0	338 944,81
May	12 420	125 500,00	10,1047	44 210,0	446 728,79
Iyun	12 420	145 600,00	11,7230	44 210,0	518 273,83
Iyul	12 420	95 220,00	7,6667	44 210,0	338 944,81
Avgust	15 525	119 025,00	7,6667	44 210,0	338 944,81
Sentyabr	15 525	119 025,00	7,6667	44 210,0	338 944,81
Oktyabr	15 525	119 025,00	7,6667	44 210,0	338 944,81
Noyabr	17 077,50	130 930,00	7,6668	44 210,0	338 944,81
Dekabr	18 630	144 025,00	7,7308	44 210,0	338 944,81
Jami:					4 354 450,72
<b>2008 yil</b>					
Yanvar	18 630	144 025	7,7308	44 210,0	341 778,67
Fevral	18 630	144 025	7,7308	44 210,0	341 778,67

Mart	18 630	144 025	7,7308	44 210,0	341 778,67
Aprel	20 865	161 308	7,7310	44 210,0	341 787,51
May	20 865	185 425	8,8869	44 210,0	392 889,85
Iyun	20 865	224 560	10,7625	44 210,0	475 810,13
Iyul	20 865	161 308	7,7310	44 210,0	341 787,51
Avgust	20 865	161 308	7,7310	44 210,0	341 787,51
Sentyabr	25 040	194 500	7,7676	44 210,0	343 405,60
Oktyabr	25 040	194 500	7,7676	44 210,0	343 405,60
Noyabr	26 540	208 400	7,8523	44 210,0	347 150,18
Dekabr	28 040	208 400	7,4322	44 210,0	328 577,56
Jami:					4 281 937,45
2009 yil					
Yanvar	28 040	208 400	7,4322	44 210,0	328 577,56
Fevral	28 040	208 400	7,4322	44 210,0	328 577,56
Mart	28 040	208 400	7,4322	44 210,0	328 577,56
Aprel	28 040	208 400	7,4322	44 210,0	328 577,56
May	28 040	245 600	8,7589	44 210,0	387 230,97
Iyun	28 040	297 852	10,6224	44 210,0	469 616,30
Iyul	28 040	208 400	7,4322	44 210,0	328 577,56
Avgust	33 645	251 500	7,4751	44 210,0	330 474,17
Sentyabr	33 645	251 500	7,4751	44 210,0	330 474,17
Oktyabr	33 645	251 500	7,4751	44 210,0	330 474,17
Noyabr	33 645	251 500	7,4751	44 210,0	330 474,17
Dekabr	37 680	282 400	7,4947	44 210,0	331 340,69
Jami:					4 152 972,45
2010 yil					
Yanvar	37 680	282 400	7,4947	44 210,0	331 340,69
Fevral	37 680	282 400	7,4947	44 210,0	331 340,69
Mart	37 680	282 400	7,4947	44 210,0	331 340,69
Aprel	37 680	282 400	7,4947	44 210,0	331 340,69
May	37 680	312 500	8,2935	44 210,0	366 655,64
Iyun	37 680	365 800	9,7081	44 210,0	429 195,10
Iyul	37 680	282 400	7,4947	44 210,0	331 340,69
Avgust	45 215	325 456	7,1980	44 210,0	318 223,58
Sentyabr	45 215	325 456	7,1980	44 210,0	318 223,58
Oktyabr	45 215	325 456	7,1980	44 210,0	318 223,58
Noyabr	45 215	325 456	7,1980	44 210,0	318 223,58
Dekabr	49 735	375 256	7,5451	44 210,0	333 568,87
Jami:					4 059 017,36
2011 yil					
Yanvar	49 735	375 256	7,5451	44 210,0	333 568,87
Fevral	49 735	375 256	7,5451	44 210,0	333 568,87
Mart	49 735	375 256	7,5451	44 210,0	333 568,87
Aprel	49 735	375 256	7,5451	44 210,0	333 568,87
Jami:					1 334 275,48
Hammasi:					21 135 328,86

4. Pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqini hisoblab chiqamiz:

Pensiyanı hisoblash uchun o'rtacha oylik ish haqi =  $21\,135\,328,86 \text{ so'm}/60 = 352\,255,48 \text{ so'm}$ .

2-ilova

**O'zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam oylik ish haqi  
MIQDORLARI**

<b>O'zgartirishlar sanasi va davri</b>	<b>Belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdori</b>
<b>So'mlarda:</b>	
01.01.1973 yildan	70,00
01.01.1992 yildan	350,00
01.03.1992 yildan	$(350,00 + 550,00) / 2 = 450,00$
01.04.1992 yildan	550,00
01.07.1992 yildan	1 000,00
01.09.1992 yildan	1 250,00
01.10.1992 yildan	2 000,00
01.01.1993 yildan	2 500,00
01.04.1993 yildan	3 000,00
01.06.1993 yildan	7 500,00
01.07.1993 yildan	11 250,00
01.09.1993 yildan	13 500,00
01.11.1993 yildan	16 200,00
<b>So'm-kuponlarda:</b>	
01.12.1993 yildan	24 300,00
01.01.1994 yildan	30 000,00
01.03.1994 yildan	45 000,00
01.06.1994 yildan	70 000,00
<b>O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida (so'm):</b>	
01.07.1994 yildan	70,00
01.08.1994 yildan	100,00
01.03.1995 yildan	150,00
01.09.1995 yildan	250,00
01.04.1996 yildan	400,00
01.09.1996 yildan	550,00
01.12.1996 yildan	600,00
01.07.1997 yildan	750,00
01.07.1998 yildan	1 100,00
01.01.1999 yildan	1 320,00
01.08.1999 yildan	1 750,00
01.08.2000 yildan	2 450,00
01.08.2001 yildan	3 430,00
01.04.2002 yildan	3 945,00
01.08.2002 yildan	4 535,00
01.05.2003 yildan	5 440,00
01.08.2004 yildan	6 530,00
01.05.2005 yildan	7 835,00
01.10.2005 yildan	9 400,00
01.07.2006 yildan	10 800,00
01.11.2006 yildan	12 420,00

01.08.2007 yildan	15 525,00
01.11.2007 yildan	$(15\ 525,00 + 18\ 630,00) / 2 = 17\ 077,50$
01.12.2007 yildan	18 630,00
01.04.2008 yildan	20 865,00
01.09.2008 yildan	25 040,00
01.11.2008 yildan	$(25\ 040,00 + 28\ 040,00) / 2 = 26\ 540,00$
01.12.2008 yildan	28 040,00
01.08.2009 yildan	33 645,00
01.12.2009 yildan	37 680,00
01.08.2010 yildan	45 215,00
01.12.2010 yildan	49 735,00
01.08.2011 yildan	57 200,00
01.12.2011 yildan	62 920,00
01.08.2012 yildan	72 355,00
01.12.2012 yildan	79 590,00
01.08.2013 yildan	$(79\ 590,00 + 91\ 530,00) / 2 = 85\ 560,00$
01.09.2013 yildan	91 530,00
01.12.2013 yildan	$(91\ 530,00 + 96\ 105,00) / 2 = 93\ 817,50$
01.01.2014 yildan	96 105,00
01.09.2014 yildan	107 635,00
01.12.2014 yildan	$(107\ 635,00 + 118\ 400,00) / 2 = 113\ 017,50$
01.01.2015 yildan	118 400,00
01.09.2015 yildan	130 240,00